



**QARSHI MUHANDISLIK -
IQTISODIYOT INSTITUTI**

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2024 / 3



innoeconomic@qmii.uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



<https://ojs.qmii.uz/index.php/ej>



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

2-jild
3-son
sentabr, 2024

September 2024
Volume 2
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Bosh muharrir:

O.SH.Bazarov, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektori

Bosh muharrir o'rinbosari:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

*Jurnal 1 yilda 4 marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy-amaliy elektron jurnali - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-martda 068055-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmatlar sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)*

Shevchenko Igor Viktorovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)*

Kusainov Xalel Xaymullaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)*

Samandarzoda Iskandar Hakim - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)*

Sidirov Viktor Aleksandrovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Kuban davlat universiteti)*

Dmitro Dema - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Ukraina milliy universiteti, Jitomir)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Abdurahmonov Qalandar Xodjaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik*

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik*

Yusupov Ahmadbek Tadjievich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Pardaev Mamayunus Qarshiboevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Maxmudov Nosir Maxmudovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Nazarova Fatima Xakimovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Murtazaev Olim - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Navro'z-zoda Baxtiyor Ne'matovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Xatamov Ochildi Qurbonovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Xamraeva Sayyora Nasimovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Salimov Baxtiyor Tadjievich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Rustamova Iroda Baxramjanovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Xurramov Azamat Fayzullaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Xayriddinov Azamat Botirovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Berdiev Abdumalik Hakimovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Fayzieva Shirin Shodmonovna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Omonov Rustam Farmonovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Samiyeva Gulnoza Taxirovna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent.*

Egamberdieva Salima Raimberdievna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Tursunov Imomnazar Egamberdievich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent.*

Erkaeva Gulbahor Panjievna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Turobov Sherzod Alisherovich - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Panjiev Samijon Aliqulovich - *pedagogika fanlari falsafa doktori,*

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Учредитель:

Каршинский инженерно-экономический институт

Главный редактор:

О.Ш.Базаров, кандидат технических наук, доцент,
ректор Каршинского инженерно-экономического
института

Заместитель редактора:

P.X.Эргашев, доктор экономических наук, профессор,
Каршинский инженерно-экономический институт

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD.
Каршинский инженерно-экономический институт

Технический редактор:

Ф.Ф.Хаккулов
Каршинский инженерно-экономический институт

Журнал издается 4 раза в год в электронном виде
через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225.

Тел.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» зарегистрирован
Агентством информации и массовых коммуникаций
при Администрации Президента Республики
Узбекистан 10 марта 2023 года за номером 068055.

Статьи публикуются в журнале на основе следующих рубрик:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика региона и отрасли
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - доктор экономических наук,
профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - доктор экономических наук,
профессор (Белорусский национальный технический университет)

Шевченко Игорь Викторович - доктор экономических наук, профессор
(Кубанский государственный университет, Россия)

Кусаинов Халел Хаймуллаевич - доктор экономических наук, профессор
(Казахстанский государственный технологический университет)

Самандарзода Искандар Ҳаким – доктор экономических наук,
профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш.Шотемура)

Сидиров Виктор Александрович - доктор экономических наук,
профессор (Кубанский государственный университет)

Дмитрий Дема - доктор экономических наук, профессор (Национальный
университет Украины, г. Житомир)

Члены Совета редколлегии:

Абдурахмонов Қаландар Ходжаевич - доктор экономических наук,
профессор, академик

Гулямов Саидахрор Саидахмедович - доктор экономических наук,
профессор, академик

Юсупов Аҳмадбек Таджиевич - доктор экономических наук, профессор

Пардаев Мамаюнус Қаршибоевич - доктор экономических наук,
профессор

Вахабов Абдурахим Васикович - доктор экономических наук, профессор

Махмудов Носир Махмудович - доктор экономических наук, профессор

Назарова Фатима Хакимовна - доктор экономических наук, профессор

Муртазаев Олим - доктор экономических наук, профессор

Наврӯз-зода Бахтиёр Неъматович - доктор экономических наук,
профессор

Хатамов Очилди Қурбоневич - доктор экономических наук, профессор

Хамраева Сайёра Насимовна - доктор экономических наук, профессор

Салимов Бахтиёр Таджиевич - доктор экономических наук, профессор.

Рустамова Ирода Бахрамжановна - доктор экономических наук,
профессор.

Хуррамов Азамат Файзуллаевич - доктор экономических наук,
профессор.

Хайриддинов Азамат Ботирович – кандидат экономических наук,
доцент.

Бердиев Абдумалик Ҳакимович - кандидат экономических наук, доцент.

Файзиева Шириш Шодмоновна - кандидат экономических наук, доцент.

Омонов Рустам Фармонович - кандидат экономических наук, доцент.

Самиева Гулноза Тахировна - кандидат экономических наук, доцент.

Эгамбердиева Салима Раимбердиевна - кандидат экономических наук,
доцент.

Турсунов Имомназар Эгамбердиевич - кандидат экономических наук,
доцент.

Аликулов Азамат Туйғунович - кандидат экономических наук, доцент.

Эркаева Гулбахор Панжиевна - кандидат экономических наук, доцент.

Аминов Фазлитдин Бахадирович - кандидат экономических наук,
доцент.

Хужакулова Нигора Рустамовна - кандидат экономических наук.

Туробов Шерзод Алишерович - кандидат экономических наук.

Эргашева Насиба Рахматуллаевна - кандидат экономических наук.

Панжиев Самижон Аликулович - PhD, доцент.

Mundarija

Raqamli iqtisodiyot	8
Qashqadaryo viloyati inklyuziv iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli transformatsiya va texnologiyalarning ahamiyati <i>Zokirova, Bahora Zokir qizi</i>	9
Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti	14
Transport-logistika tizimi samaradorligini oshirishning mintaqaviy jihatlari	15
<i>Eshqobilova, Nargiza Mingniyorovna</i>	
Тиббий хизматлар бозори вужудга келишининг минтақавий хусусиятлари	22
<i>Кесимов, Даврон Бобомуродович</i>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	28
Hududlarda aholi bandligini ta'minlashdagi muammo va istiqbollari	29
<i>Turobov, Sherzod Alisherovich</i>	
Inson kapitali iqtisodiyoti	35
O'zbekistonda pensiya jamg'armasi faoliyatining nazariy asoslari	36
<i>Samiyeva, Gulnoza Toxirovna</i>	
Ekonometrika va statistika	43
Qashqadaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirish hajmini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va ular asosida modellashtirish	44
<i>Xujakulova, Nigora Rustamovna</i>	
Xizmatlar sohasi	50
Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari	51
<i>Ochilov, Akram Odilovich, Xudoyorov, Azizbek Avaz o'g'li</i>	
Xizmatlar sohasining iqtisodiy tahlili va soha rivojlanishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar	57
<i>Xudoyorov, Azizbek Avaz o'g'li</i>	

Содержание

Цифровая экономика	8
Значение цифровой трансформации и технологий в развитии инклюзивной экономики Кашкадарьинской области	9
<i>Закирова, Бахора Зокир кизи</i>	
Экономика региона и отрасли	14
Повышение эффективности транспортно-логистической системы	15
<i>Эшкobilова, Наргиза Мингниёровна</i>	
Региональные особенности рынка медицинских услуг	22
<i>Кесимов, Даврон Бобомуродович</i>	
Малый бизнес и частное предпринимательство	28
Проблемы и перспективы обеспечения занятости населения в регионах	29
<i>Туробов, Шерзод Алишерович</i>	
Экономика человеческого капитала	35
Теоретические основы деятельности пенсионных фондов в Узбекистане	36
<i>Самиева, Гулноза Тохировна</i>	
Эконометрика и статистика	43
Факторы, влияющие на увеличение объемов выращивания лекарственных растений в Кашкадарьинской области и моделирование на их базе	44
<i>Хужакулова, Нигора Рустамовна</i>	
Сфера услуг	50
Роль сферы услуг в экономике страны и ее социально-экономических основ	51
<i>Очилов, Акрам Одилевич, Худаяров, Азизбек Аваз Угли</i>	
Экономический анализ сферы услуг и возможностей, созданных для развития отрасли	57
<i>Худаяров, Азизбек Аваз Угли</i>	

Contents

Digital economy	8
The importance of digital transformation and technology in the development of an inclusive economy of Kashkadarya region	9
<i>Zakirova, Bahora Zokir qizi</i>	
Economy of the region and industry	14
Increasing the efficiency of the transport-logistics system	15
<i>Eshkobilova, Nargiza Mingniyorovna</i>	
Regional features of the medical services market	22
<i>Kesimov, Davron Bobomurodovich</i>	
Small business and private entrepreneurship	28
Problems and prospects of ensuring employment in the regions	29
<i>Turobov, Sherzod Alisherovich</i>	
Economics of human capital	35
Theoretical basis of the activities of pension funds in Uzbekistan	36
<i>Samieva, Gulnoza Tokhirovna</i>	
Econometrics and statistics	43
Factors affecting increasing the volume of medicinal plant cultivation in Kashkadarya region and modeling on their base	44
<i>Khujakulova, Nigora Rustamovna</i>	
Service sector	50
The role of the service field in the country's economy and its socio-economic basics	51
<i>Ochilov, Akram Odilovich, Khudayarov, Azizbek Avaz Ugli</i>	
Economic analysis of the service sector and the opportunities created for the development of the sector	57
<i>Khudayarov, Azizbek Avaz Ugli</i>	

Raqamli
iqtisodiyot

Цифровая
экономика

Digital economy

Raqamli iqtisodiyot

Qashqadaryo viloyati inklyuziv iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli transformatsiya va texnologiyalarning ahamiyati

Zokirova, Bahora Zokir qizi

Значение цифровой трансформации и технологий в развитии инклюзивной экономики Кашкадарьинской области

Закирова, Бахора Зокир кизи

The importance of digital transformation and technology in the development of an inclusive economy of Kashkadarya region

Received: September 14, 2024 Revised: September 18, 2024

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati inklyuziv iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli transformatsiya va texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida Qashqadaryo viloyati inklyuziv iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli transformatsiya va texnologiyalarning ahamiyati bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, inklyuziv iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, raqamli texnologiya.

Аннотация: В данной статье говорится о значении цифровой трансформации и технологий в развитии инклюзивной экономики Кашкадарьинской области. На основе научных данных автор на основе доступной литературы изучил и проанализировал конкретные аспекты значимости цифровой трансформации и технологий в развитии инклюзивной экономики Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, инклюзивная экономика, цифровая трансформация, цифровые технологии.

Abstract: This article talks about the importance of digital transformation and technologies in the development of inclusive economy of Kashkadarya region. Based on scientific data, the author studied and analyzed specific aspects of the importance of digital transformation and technologies in the development of inclusive economy of Kashkadarya region based on available literature.

Keywords: Kashkadarya region, inclusive economy, digital transformation, digital technology.

KIRISH

Bugungi kunda inson faoliyatining barcha sohasini axborotlashtirish masalasi juda dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Inson mehnatini abstraksiyalash va uni mashina mehnati bilan almashtirishga qaratilgan loyiha va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Har qanday mamlakat taraqqiyotga erishishi uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishi zarur va shart. Bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham kamaytiradi. Shu bilan birga, mamlakat rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham katta rol o'ynaydi.

Raqamli transformatsiyaning an'anaviy avtomatlashtirilgan tizimdan farqi samaradorlikning keskin oshishida hisoblanadi. Shuning uchun transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, odatda yangi biznes modellarni yaratilishiga olib keladi. Shuningdek, korxonalarda korporativ axborot tizimlarini joriy etilishi yoki modernizatsiya qilinishi bo'yicha amalga oshirilgan har qanday loyihani ham raqamli transformatsiya deb bo'lmaydi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham raqamli iqtisodiyotning avfzalliklari hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, S.N.Xamrayeva O'zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoni rivojlantirish xususiyatlari [9], A.P.Dobranin, raqamli iqtisodiyot - texnologiyadan samarali foydalanishning turli yo'llari, uning ko'lamini, A.V.Keshelava tomonidan mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda raqamli iqtisodiyotning tutgan o'rnini va uning kamchiliklari, V.D.Maarkova tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda salohiyatli kadrlarni yetishtirish muammolariga to'xtalib o'tishgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish rossiyalik olimlar K. Shvab, S.Shipov kabi olimlar amalga oshirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so'rovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilishni, yangi bozorlarga chiqish yo'nalishlarini belgilab beradi. Yangi biznes modellari mijozlarga yo'naltirilgan (customer centric) bo'lib, ularning strukturasi to'liq belgilab beradi, ya'ni mijoz talabini oldindan belgilangan muhim taklifini hisobga olib, xaridor tomonidan mahsulotdan foydalanish davrida, o'z vaqtida (just-in-time) yetkazib berishdan boshlab daromad kelishgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ushbu sohaga katta e'tibor qaratib, 2020 yilning 24 yanvarida Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida shunday dedilar: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berishni taklif etaman [3]. Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga bir necha bor to'xtalib o'tdilar va "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturini ishlab chiqish vazifasini belgilab berdilar.

Iqtisodiyot va jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida – digitization ya'ni, raqamlashtirish, ba'zan esa digitalization ya'ni raqamlashtirilishi ma'nosini bildiradi.) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalaridir [4].

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidagi iqtisodiy statistik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiyot faoliyati yaqindan o'rganildi va ma'lumotlar bazasi yig'ildi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Hududlarda investitsion jozibadorligini oshirish va ulardagi innovatsion faoliyatni oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosiblikni minimallashtirish, mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlash hamda inson salohiyatidan

oqilona foydalanish lozim.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular farovon kelajak uchun yangi yo'llar va imkoniyatlarni yaratadi, shu bilan bir qatorda ular yangi vazifalarni ham qo'yadilar. Biroq, raqamli texnologiyalar o'z platformalarining yorqinligi va samaradorligi bilan hayratda qoldirgan bo'lsa-da, ular hozirgacha yuqori mahsuldorlik o'sishida kutilgan dividendni to'liq yetkazib bermadi. Darhaqiqat, so'nggi ikki o'n yillikda ko'plab rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yalpi hosildorlikning o'sishi sekinlashdi. Natijada, iqtisodiy o'sish pasayish tendentsiyasiga ega bo'ldi. Chunki bugungi aqlli mashinalarning imkoniyatlarini to'laqonli amalga oshirish uchun uni qo'llamoqchi bo'lgan kompaniyalar va ularning mutaxassislari ham aqlli bo'lishi kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotlarida raqamli transformatsiya yaratgan yangi imkoniyatlarda iqtisodiy sub'ektlarning notekis ishtirok etish holatlari kuzatilmoqda. Ko'pchilik sanoat va firmalar, ishchi kuchi va jamiyatning turli qatlamlari bo'ylab ortda qolmoqda [5].

Qashqadaryo viloyatida Axborot texnologiyalari va

kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Vazirlik viloyat hududiy boshqarmasi, "O'zkomnazorat" viloyat inspeksiyasi, Vazirlik tizimidagi viloyat tashkilotlari hamda mobil aloqa operatorlarining viloyatdagi filiallari mas'ul xodimlaridan iborat "Ishchi guruh" tomonidan Qashqadaryo viloyatini "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida raqamli transformatsiya qilish dasturi loyihalari ijrosi yuzasidan joyiga chiqqan holda o'rganish o'tkazildi.

O'rganish yakunlari bo'yicha viloyatni raqamli transformatsiya qilish dasturida belgilangan umumiy qiymati 25 mlrd. so'mga teng 120 ta chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Qashqadaryo viloyati miqyosida 51 ta, na'munali hududlar sifatida tanlab olingan Qarshi tumanida 75 tasi (62,5 %) bajarilgan, 7 tasi (5,8%) to'liq bajarilmagan, 3 tasi (2,5%) moliyalashtirish masalalari yechilmaganligi sababli to'xtab qolgan va 35 tasi (23,2%) bajarilmoqda. Shundan, 2021-2022-yillar davomida amalga oshiriladigan 14 ta chora-tadbirlar muddatidan oldin bajarilgan va 7 ta loyihalar bo'yicha kechikishlar mavjudligi aniqlanib, ularni tezkor bartaraf qilish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2022 yilda ishlab chiqarilgan jami yalpi mahsulotlar hajmi [10]

Nº	YALPI MAHSULOTLAR	UMUMIY SUMMASI TRIL. SUM	MAHSULOTLAR PROPORSIYASI %	O'TGAN YILGA NISBATAN O'SISH %
1	Hududiy mahsulotlar hajmi	58,4	37,5	5
2	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	40,2	25,8	4,3
3	Sanoat ishlab chiqarish hajmi	28,3	18,2	7,1
4	Bozor-servis xizmatlari hajmi	19,6	12,6	11
5	Qurilish mahsulotlari hajmi	9,2	5,9	7
	Jami	155,7	100	6,8

Qashqadaryo viloyatida raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati quyidagicha:

- yalpi hududiy mahsulot hajmi – 58,4 trln so'm
- ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi – 28,3 trln so'm
- bajarilgan qurilish ishlari hajmi – 9,2 trln so'm
- asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar hajmi – 21,7 trln so'm
- ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – 19,5 trln so'm

- chakana savdo tovar aylanmasi hajmi – 21,5 trln so'm
- tashqi savdo aylanmasi hajmi – 735,6 mln AQSH dollari
- qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining hajmi – 40,2 trln so'm
- yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni – 6 145 ta
- doimiy aholisi soni (2024-yil 1-yanvar holatiga) – 3,6 mln kishini tashkil etadi [6].

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hamda yoqilg'i resurslarini qazib olish bo'yicha O'zbekistonda muhim o'rin egallaydi. Viloyat respublikada

2-jadval

Qashqadaryo viloyatini ayrim mahsulotlar ishlab chiqarish yuzasidan Respublikada tutgan o'ri [10]

Nº	MAHSULOT TURLARI	FOIZDA	O'RNI
1	Oltinugut xomashyosi	100	to'liq 1 o'rin
2	Kondensier mahsuloti	99,6	yuqori
3	Neft mahsulotlari	92	yuqori
4	Gaz qazib chiqarish	88	yuqori
5	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	10,2	o'rta
6	G'alla	12	o'rta
7	Paxta	11,8	o'rta
8	Qorako'l teri	19,1	o'rta

qazib olinadigan tabiiy gazning 88 %, neftning 92 %, kondensatning 99,6 %, oltinugurtning 100 % ni beradi.

Qashqadaryo respublikada eng ko'p don va paxta yetkazib beradigan viloyatdir. O'zbekistonda tayyorlanadigan yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 10,2 %, shu jumladan, paxtaning 11,8 %, g'allaning 12 %, qorako'l terining 19 % i viloyat hissasiga to'g'ri keladi.

Tabiiy gaz, kondensat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar rivojlanmoqda.

Viloyatda 1,1 ming kichik korxonalar, 40,6 ming mikrofirmalar mavjud bo'lib, bular sanoat, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi va boshqalar korxonalaridan iborat.

2023 yilda viloyatda ishlab chiqilgan yalpi mahsulotlar 155,7

trln. so'mga yetib, o'tgan 2022 yilga nisbatan 6,8 foizga o'sishga erishilgan.

Xususan, 2023-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi – 5 foizga (58,4 trln so'm), sanoat – 7,1 foizga (28,3 trln so'm), qishloq xo'jaligi – 4,3 foizga (40,2 trln so'm), bozor xizmatlari – 11 foizga (19,5 trln so'm) va qurilish ishlari – 7 foizga (9,2 trln so'm) o'sishi ta'minlangan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAHM hajmi 2,2 mln. so'm (2,7 foiz)ga oshib, 16,6 mln. so'mga yetgan mahsulot ishlab chiqarishni sohalar tizimi bo'yicha ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi.

Boshqa davlatlarning bu sohadagi barcha muvaffaqiyatlari, texnologiyalarga xususiy kompaniyalar va davlat tomonidan kiritilgan investitsiyasi yotadi. To'liq ma'noda faoliyat olib

3-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2022 yilda ishlab chiqarilgan jami yalpi mahsulotlar hajmi

Nº	YALPI MAHSULOTLAR	UMUMIY SUMMASI TRLN. SO'M	MAHSULOTLAR PROPORTSIYASI %	O'TGAN YILGA NISBATAN O'SISH %
1	Hududiy mahsulotlar hajmi	58,4	37,5	5
2	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	40,2	25,8	4,3
3	Sanoat ishlab chiqarish hajmi	28,3	18,2	7,1
4	Bozor servis xizmatlari hajmi	19,6	12,6	11
5	Qurilish mahsulotlari hajmi	9,2	5,9	7

borayotgan raqamli bozor iqtisodiyotning real sektorida yuqori darajadagi foydani ta'minlash bilan birgalikda ko'plab ish joylarini tashkil qilishni ta'minlaydi. So'nggi raqamli texnologiyalar mamlakatlar va integratsiyalashgan makromintaqalarning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi, raqamli iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiyotdan bir necha barobar tezroq o'sib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyot kengayib borar ekan, u xalqaro savdo va globallashuvga ham yordam beradi. Kichik va o'rta korxonalar (KO'K) endi jahon bozorlarida hech qachon bo'lmaganidek ishtirok etishlari, global mijozlar bazasiga kirishlari va yirik korporatsiyalar bilan raqobatlashishi mumkin. Xalqaro savdoni bunday demokratlashtirish yanada inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi va rivojlanayotgan mamlakatlarning KO'B korxonalariga global iqtisodiyotda ishtirok etish imkonini beradi. Biroq, raqamli tafovutni bartaraf etish va raqamli resurslar va imkoniyatlardan teng foydalanishni ta'minlash juda muhimdir. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish va raqamli iqtisodan foyda ko'rayotganlar va foydalana olmaydiganlar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun raqamli savodxonlikni rag'batlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Raqamli texnologiyalardan teng foydalanish inklyuziv jamiyatni rivojlantiradi va mavjud ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar kuchayishining oldini oladi [7]. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari hali ham rivojlanayotgan sohalaridir va biz faqat davlatning iqtisodiyotiga qanday ta'sir qilishini taxmin qilishimiz mumkin. Bugungi kunda biz raqamli iqtisodiyotning hayotimizni turli sohalariga ta'sirining ko'plab ijobiy natijalarini bilamiz. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot O'zbekistonning keyingi 10 yildagi iqtisodiy o'sishining asosi hisoblanadi [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy iqtisodiyotda "raqamlashtirish poygasi" shiddatli tus olmoqda va shunga muvofiq biznes va jamiyatning raqamli o'zgarishi muqarrardir. Ushbu "raqamlashtirish poygasi" jarayonini qanchalik tez boshlansa shunchalik ijobiy samaraga erishish mumkin. Shu sababli, raqamli transformatsiyani birinchi bo'lib boshlaydigan iqtisodiy tuzilmalar (davlat, tarmoq, korxonalar va boshqalar) yaqin kelajakda raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lishadi.

Mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish yo'li bilan transformatsiya qilinishi muqarrar. Bu jarayonni samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun: axborot kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishda katta kadrlar salohiyati ega bo'lgan davlatning ta'sirini oshirish va butun jamiyat a'zolarini faol ishtirok etishini ta'minlash; keng miqyosda iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni va texnologik

transformatsiyalarni keng miqyosda joriy etilishini, ayniqsa zamonaviy texnologiyalarga asoslangan sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash zarur.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Zokirova, Bahora Zokir qizi - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tadqiqotchisi / Закирова, Бахора Зокир кизи - Научный сотрудник Каршинского инженерно-экономического института / Zakirova, Bahora Zokir qizi - Researcher at Karshi Engineering Economics Institute

► bahora86@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-3532-1747>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4699-son qarori.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 21 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va Senatiga Murojaatnomasi. <http://turkiston.uz> (murojaat sanasi: 16.03.2020)
- [4]. Данное определение приводится, в частности, экспертами UNCTAD (The Transformative Economic Impact of Digital Technology, http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09_Katz_en.pdf)
- [5]. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.
- [6]. Qashqadaryo viloyati Statistika agentligining 2023-yilgi hisobot materiallari.
- [7]. Tursunov F.U. Raqamli iqtisodiyot va globallashuv: Raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishning muhimligi. – T. Iqtisodiyotda innovatsiyalar, 6-son, 3 jild.
- [8]. Rashidov A. Iqtisodiyotni tartibga solishda notarif usullarining orni va ahamiyati //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
- [9]. Добранин, А.П. Цифровая экономика – различные пути к эффективному применению технологий (БИМ, ПЛМ, САД, ИОТ, Смарт Сити, БИГ ДАТА и другие). М.:2016.
- [10]. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Mintaqa va
tarmoqlar
iqtisodiyoti

Экономика региона
и отрасли

Economy of the
region and industry

Transport-logistika tizimi samaradorligini oshirishning mintaqaviy jihatlari

Eshqobilova, Nargiza Mingniyorovna

Повышение эффективности транспортно-логистической системы

Эшкобилова, Наргиза Мингниёровна

Increasing the efficiency of the transport-logistics system

Eshkobilova, Nargiza Mingniyorovna

Received: September 5, 2024 Revised: September 7, 2024 ■ Accepted: September 9, 2024 ■ Published Online: October 1, 2024

Annotatsiya: Ushbu maqolada transport-logistika tushunchalariga mualliflik ta'riflari va ularni rivojlantirish yo'llari va istiqbollari, samaradorligini oshirish omillari, imkoniyatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda yuklarni tashishda yuzaga keladigan, ortib-tushurish, hujjatlarni rasmiylashtirish, eng qulay va mos harakatlanish yo'nalishini tanlash, yuk turiga asosan mos transport turini aniqlab olish zarurati ochib berilgan. Shuningdek, olimlarning ilmiy izlanishlarida transport-logistik tizimi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari o'rganilib, tegishli xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: transport-logistika, yuklar, samaradorlik, ortib-tushurish, samaradorlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, mintaq, transport yo'laklari, transport-logistik tizimlari.

Аннотация: В данной статье даны авторские определения транспортно-логистических концепций и путей и перспектив их развития, факторов, возможностей, организационно-экономических механизмов повышения эффективности, а также погрузки и разгрузки, оформления документов, наиболее удобного и целесообразного перемещения. или Выявлена необходимость выбора вида транспорта, определения подходящего вида транспорта исходя из типа груза. Также в научных исследованиях ученых были изучены организационно-экономические механизмы повышения эффективности транспортно-логистической системы и представлены соответствующие выводы.

Ключевые слова: транспортно-логистика, груз, эффективность, повышение-снижение, эффективность, организационно-экономический механизм, регион, транспортные дорожки, транспортно-логистические системы.

Abstract: In this article, the author's definitions of transport and logistics concepts and ways and perspectives of their development, factors, opportunities, organizational and economic mechanisms of increasing efficiency, as well as loading and unloading, document preparation, the most convenient and suitable movement or The need to choose the mode, to determine the appropriate type of transport based on the type of cargo is revealed. Also, in the scientific research of scientists, organizational and economic mechanisms were presented for increasing the efficiency of the transport and logistics system were studied and corresponding conclusions.

Keywords: transport-logistics, cargo, efficiency, increase-decrease, efficiency, organizational-economic mechanism, transport roads, transport and logistics systems.

KIRISH.

Dunyo miqiyosida muqobil transport yo'laklarini shakllantirish, barqaror logistika zanjirlarini yaratish, tranzit yo'llardagi yangi yo'nalishlarni ochish, dunyo okeaniga chiqish yo'lidagi sa'y-harakatlarda samarali "raqobatli hamkorlikka o'tish, davlatlarning tabiiy-geografik joylashuvidan kelib chiqib, ichki va xalqaro tashqi yuk tashishlar uchun zaruriy infrastrukturalarini, chunonchi zamonaviy klasterlarni yaratish, tariflar va bojxona tizimlarini takomillashtirish, transport-logistika tizimlari subyektlarining investitsion jozibadorligini oshirish, mazkur xizmatlar istiqbollarini belgilash kabi muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ochiq dengizga chiqish yo'laklarini mavjud emasligi sababli ichki va tashqi yuklar importi va eksportida temir yo'l, havo yo'llari va avtomobil yo'llari tizimlariga asoslangan transport-logistika tizimlari ni rivojlantirish yo'li tanlangan. Qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi"da [1] "O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish" nomli maxsus 53-bandida respublikamiz transport tizimlarini modernizatsiyalash va isloh qilishga doir ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan. Ushbu maqsad va vazifalarni hal etish transport-logistik xizmatlarni rivojlantirish yo'llari va istiqbollari, ular samaradorligini oshirish omillari, imkoniyatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotlarni olib borishni zarurat qilib qo'yadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Transport-logistika sohasini rivojlantirishning nazariy, uslubiy va tashkiliy masalalari, samaradorlikni oshirish muammolari G.Dantzig [2], J.Ramser [3], Y.V.Lun [4], S.B.Lyovin [5] kabi xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, transport-logistika sohasini rivojlantirish yuzasidan A.Kisun transport-logistika tizimlarisohasi rivojiga ta'sir etuvchi omillarni guruhlagan [6], Y.S.Maslov esa transport-logistika tizimlari sohasini boshqarishni raqamli texnologiyalar vositasida tashkil qilishni, M.M.Kovalev, A.A.Koroleva va A.A.Dutinalar [7] esa transport-logistika tizimlaririvojlanish amaliyoti va istiqbollarini tadqiq etishgan. John Johansen va Jan Stentoft Arlbjurnlar o'z tadqiqot ishlarida logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvini kompleks ravishda o'rganish masalasini ko'rib chiqqan.

O'zbekistonda transport-logistika sohasini rivojlantirishning

nazariy-uslubiy masalalari R.G.Samatov [8], Z.Yu.Yusufxonov [9], D.T.Axmedov [10] kabi tadqiqotchilarning ishlari transport-logistika obyektlari va ularni boshqarish bo'yicha fikr va tavsiyalar berilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlarida transport-logistik tizimi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari chuqur tadqiq etilmagan. O'zbekistonda transport-logistika markazlari faoliyati va ular samaradorligini oshirish yo'llari yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, transport-logistika tizimi samaradorligi va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri masalalarini tizimli va majmualiy tadqiq qilish zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot jarayonida transport-logistika tizimi samaradorligini oshirishning xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari masalalari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraksiya usullaridan keng foydalanilgan

ASOSIY TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Rivojlanish va integratsiya bosqichlarini bir biri bilan uzviy holda sodir bo'lganligini ham ayrim sohalarda ko'rish mumkin. Lekin umumiy olib qaraganda ularni shu yillar oralig'ida sodir bo'lgan deb hisoblash mumkin.

Yillar davomida logistikaning ko'llanish sohasini o'zgarishi uning turli guruhlanishlari paydo bo'lishiga ham olib kelgan. Transport logistikasi ham logistikaning alohida tarmog'i ham xizmat turi sifatida o'z o'rniga ega. Biz bular orasida aynan transport logistikasiga diqqatimizni qaratganimizning sababi transport logistikasi tashqi savdoda raqobatbardoshlikni oshirish yo'llaridan biri hisoblanadi. Logistikadagi xarajatlarning 50%i [11] transport xarajatlari bilan bog'liqligidir.

Transport logistikasi yukni bir joydan ikkinchi joyga eng kam xarajatlar evaziga optimal marshrut orqali yetkazishni ifodalaydi [12].

Uning maqsadi kerakli yuk kerakli vaqtda kerakli joyga minimal xarajatlar bilan yetkazilishidir.


Transport-logistika tizimlari deganda yuklarni tashishda yuzaga keladigan, ortib-tushurish, hujjatlarni rasmiylashtirish, eng qulay va mos harakatlanish yo'nalishini tanlash, yuk turiga asosan mos transport turini aniqlab olish, yakuniy iste'molchiga logistik tizimlar haqida maslahatlar berib borish kabi tizimlar majmuidir.

Mazkur ta'rifimiz boshqa ta'riflardan farqli jihati faqatgina yukni tashish bilan emas balki iste'molchi xizmatdan yuqori

darajali qoniqish olishi uchun kerakli maslahatlar bilan hamrohlik qilib borish bilan bog'liq xizmatlarni ham o'z ichiga olishida namoyon bo'ladi.

Ko'pincha ta'riflarda asosiy urg'uni transport tizimlari yoki logistik xizmatlarga berishadi. Bunga sabab transport

tizimlari ni tashkil etish ham logistik yondashuvni talab etishidadir. Shuni inobatga olib, biz aynan qaysi xizmatlarni transport qaysilari logistik xizmatlar ekanligini ajratib ko'rsatamiz (1- rasmga qarang).



1-rasm. Transport logistika tizimlarining tasniflanishi [10]

Transport-logistik tizimlari da bor e'tibor tashish xarajatlarini kamaytirish va tashishni optimallashtirishga qaratilgan bo'lsa, transport-ekspeditorlik tizimlari da yukni talofatsiz, zarar yetkazmagan holda belgilangan vaqtda yetkazishga qaratiladi. Transport va logistika tizimlarideb ajratishimizdan qat'iy nazar ular o'zaro bog'liq va bir birini ichiga kirib ketadi. Bizning fikrimizcha transport tizimlariva logistika tizimlaribir biridan ayro holda, mustaqil holda mavjud bo'la olmaydi. Ular bir birini to'ldirib, majmuaviy xizmatlar sifatida amalga oshirilgandagina kutilgan natijani beradi.

Ixtiyoriy ravishda biror yukni yubormoqchi bo'lsak ham avvalo qator savollarga javob topib, tashkiliy masalalarga to'qnash kelamiz. Katta yuk oqimlarining harakatini esa logistik yondashusiz amalga oshirish samaradorlikka yomon ta'sir etadi. Faoliyatimiz yakunida erishgan natijamiz vashu uchun qilgan xarajatlarimizni sarhisob qilar ekanmiz transport logistik xizmatlarning samaradorligi muhim ahamiyatga egaligiga amin bo'lamiz.

Samaradorlik umume'tirof etilgan yagona ta'rifga ega bo'lmagan iqtisodiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilarning fikricha samaradorlikning mohiyati o'rganilayotgan obyekt, faoliyat va operatsiyaning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlariga, samaradorlikning o'lchashning maqsadi, o'lchash metodlariga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Quyida samaradorlikning bir nechta ta'riflarini keltirib, ularni ko'rib chiqamiz:

Samaradorlik - mumkin bo'lgan minimal xarajatlar bilan muayyan natijaga erishish yoki mavjud resursdan imkoni

boricha ko'proq hajmda mahsulot ishlab chiqarish [13].

Samaradorlik - 1. Iqtisodiy-matematik atama sifatida samaradorlik nuqtasi, samaradorlik chegarasi kabi tushunchalar tarkibida o'rganilib, ma'lum bir maqsadga erishish, potensialimknoniyatini realizatsiya qilish, biror vazifani bajarish kabi tushuniladi. 2. Foydalilik [14]. Samaradorlik-moliyaviy jihatdan qaraganda, bir birlik xarajat, bir birlik sarflangan kapital yoki barcha ishlab chiqarish omillarining jami bir birlik xarajatiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmat hajmini ifodalovchi ko'rsatkich [15].

Samaradorlik - iqtisodiy mazmuniga ko'ra ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag'lar yoki qilingan xarajatlar o'rtasidagi nisbat tushuniladi [15].

Yuqorida keltirib o'tilgan atamalarning barchasidagi umumiy bir jihat bu natija va unga erishish uchun qilingan harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikdir. Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik tushunchasini ta'rifiga e'tibor qilinganda, gap iqtisodiy samaradorlik haqida borayotganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, samaradorlikni iqtisodiy va texnik jihatdan ta'riflash, ishlab chiqarish va resurslar taqsimotidagi samaradorlik haqidagi ta'riflar doimo yonma-yon kelishi, bir birini ta'riflashni to'ldirishda foydalanilishini ko'rish mumkin. Biz yuqoridagilar asosida samaradorlikni aynan xizmat ko'rsatish sohasidagi holatni ifodalovchi quyidagi ta'rifni keltiramiz.

Xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlik - xizmat ko'rsatuvchi tomonidan minimal xarajat bilan xizmat ko'rsatishni


yakunlash va istemolchi ehtiyojini qondirish¹.

Bu ta'rifimizda xizmat ko'rsatishdagi samaradorlikni ham ishlab chiqarish jarayonidagi kabi erishilgan natija va qilingan sarflar nisbati kabi ifodalash mumkin. Ammo moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish yakuniy natijalarini iste'molchi tomonidan o'zlashtirilishidagi o'ziga xoslik bunda e'tibordan chetda qoladi. Ya'ni ko'rsatilgan xizmatdan iste'molchining qoniqish hosil qilganligi ham samaradorlikni ifodalashda inobatga olinishi kerak. Aytaylik agar iste'molchiga transport-logistika firmasi orqali ko'rsatilgan xizmat ma'qul bo'lmasa u jo'natmani boshqa firma orqali olishi mumkin. Bunda iste'molchi tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olishda davom etaveradi, ammo boshqa yetkazib berish xizmatidan foydalanishni tanlaydi. Xizmatni

amalga oshirgan transport-logistik firma yoki markaz tomonidan qaralganda xizmat amalga oshirildi. Xizmat uchunolgan to'lov va sarflangan xarajat nisbati ko'rsatkichi yaxshi ammo mijozning tanlovi endi bu firma emas. Samaradorlikni aniqlash va o'lchash o'z navbatida korxonaga aloqador kishilar uchun zarur. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin 2- rasm:

I guruh- bevosita korxonada faoliyat ko'rsatayotganlarga. Ularga korxonaning rahbari, bo'lim boshliqlari, menedjerlar va ishchilar kiradi.

II guruh - korxonada faoliyat yuritmaydi lekin korxonada faoliyatidan bevosita manfaatdor bo'lganlar. Bularga ta'sischi, investorlar (korxonaga investitsiya kiritgan va



2-rasm. Korxonada faoliyatidan manfaatdorlar. [10]

endi kiritmoqchi bo'lgan), yetkazib beruvchilarni kiritish mumkin.

III guruh - korxonada amalga oshirilgan ishlarining oxir oqibatdagi yakuniy natijasidan foyda oluvchilar. Bu guruhga korxonada ishlab chiqargan tovar yoki ko'rsatgan xizmatlarning yakuniy iste'molchilari, hisobotlar talab etadigan va nazoart qilib turadigan davlat tashkilotlari (soliq, moliya, statistika, bojxona)ni kiritamiz.


Samaradorlik faqat bitta korxonada uchun emas balki mamlakat iqtisodiyotining ma'lum bir tarmog'i, muayyan bir hudud uchun ham ahamiyatlidir. Samaradorlikning aynan qaysi manfaatdor nuqtai nazardan qaralishiga qarab ham turlicha talqin qilish mumkin. Mazkur ishda samaradorlik kategoriyasi aynan transport-logistik tizimlari ni ko'rsatuvchi korxonalar faoliyati nuqtai nazariyadan yondashilgan.

Bu korxonalar asosan moddiy buyumlar ishlab chiqaruvchi, savdo bilan shug'ullanuvchi va ularni iste'mol qiluvchilar orasida yetkazib berish xizmatini ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bunda jarayonda umumiy olib qaraganda 3 tomon bor deb qarash mumkin. Ya'ni agar ishlab chiqaruvchidan chakana savdo bilan shug'ullanadigan korxonada o'rtasida shartnoma

imzolansa, ishlab chiqaruvchi, logistik firma va chakana savdo korxonasi uchta ishtirokchi bo'ladi. Shuningdek to'g'ridan-to'g'ri yakuniy iste'molchiga yetkazsa ham 3 tomon manfaati to'qnashadi. Ana shuni inobatga olgan holda, biz bu jarayonga umumiy ravishda, o'ziga xos mayda detallarni e'tiborga olmay ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va istemolchi o'rtasidagi munosabat sifatida qaraymiz. Bu uch tomon ham o'z manfaati uchun samaradorlikka ega bo'lishga intiladi.

Moddiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qaralganda yetkazish xarajatlari tannarxga kiritiladi. Ishlab chiqaruvchilar odatda mahsulot tannarxni kamaytirib, samaradorlikni oshirishdan manfaatdor bo'ladi. Lekin yetkazib berish xarajatlarini minimallashtirish yetkazib berish vaqti va mahsulotning iste'mol Bu esa o'z navbatida xarajatlarini kamaytirishni nazarda tutadi. Eng ahamiyatli va qiziq jihati shundaki bir tomonning xarajati boshqa tomon uchun daromad bo'lib hisoblanadi. Aynan shu jihatga "Samaradorlik trilemmasi" deb ta'rif berishni taklif qilamiz. Uni quyidagi chizma yordamida batafsil tushuntirish mumkin (3- rasm):

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



3-rasm. Samaradorlik trilemmasi [10]

Bundan tashqari yetkazib berish bilan shug'illanuvchi logistik firma o'z xizmati uchun tarif stavkalarini belgilab qo'ygan. Ishlab chiqaruvchining xarajatlari yetkazib beruvchining daromadi bo'ladi. Iste'molchi esa yoki ishlab chiqaruvchiga to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachi logistik firma bilan shartnoma tuzish orqali tovarlarni qabul qilib oladi. Har ikki holatda ham tovar narxida yetkazib berish xarajatlarini minimal bo'lishi yoki umuman bo'lmasligidan manfaatdor bo'ladi. Ya'ni o'z ehtiyojini kam xarajat bilan sifatli mahsulot iste'moli orqali qondirishga intiladi va muayyan nafilikka ega bo'ladi. Bunda bir tomon samaradorligini oshirish ikkinchi tomon samaradorligini pasaytirish evaziga yuzaga kelishini taqozo qiladi. Har bir tomon o'z xarajatlarini qisqartirishni xohlaydi. Qarshi tomon esa aynan shu xarajatlarni pasaytirmaslikdan manfaatdor. Bu uch tomon ham jamiyatda o'z o'rniga ega, foyda keltiruvchi subyektlardir. Davlat aynan bir tomonni tarafini olib uni manfaatdor qilishdek tanlovni qabul qila olmaydi. Ularning uchalasi ham o'zaro inkor etib bo'lmaydigan, o'zaro bog'liq jarayon qatnashchilaridir. Bu trilemmada har bir tomon o'z samaradorligidan ma'lum bir darajada kechgan holda, xarajatlarning mumkin bo'lgan yuqori chegarasiga qadar ishtirok etadi. Agarda ular o'zaro umumiy yo'qotishlar va samaradorlik darajasiga kela olishmasa boshqa hamkorlar bilan aynan shunday jarayonda qatnashadilar. Bu holatda to'liq samaradorlikka erishadigan yagona tomon bo'lmaydi.

Transport-logistika tizimlari korxonalarida samaradorlikni aniqlash natijadorlik prinsipi asosida amalga oshiriladi. Biz tadqiqotlarimizga asoslangan holda transport-logistika korxonalarida samaradorlikni aniqlashdan maqsad buyetkazib berishda qatnashayotgan har bir ishtirokchi umumiy ko'rsatlayotgan xizmatning aynan qaysi qismini bajarishini

bilishdir degan fikrga keldik.

Transport-logistika tizimlarisohasida samaradorlik tushunchasiga mazkur xizmatlarn ko'rsatuvchi firmalar, markazlar, dispetcherlar faoliyati nuqtai nazaridan qaraganda quyidagi ta'rifni beramiz:

Transport-logistikasida samaradorlik deganda omborlarda saqlanayotgan mahsulotlarnizaxirasi hajmini kamaytirish, yukni o'z vaqtida sifatli, talofatsiz yetkazish xarajatlari va vaqt sarfini kamaytirish yo'li bilani firma foydasini oshirish tushuniladi¹.

Biz taklif etayotgan mazkur ta'rifda ham samaradorlik ta'rifining umumiy qismi ya'ni olingan natija va qilingan xarajatlar nisbati ifodalanganligini ko'rish mumkin. Bu ta'rifni batafsil izohlaydigan bo'lsak olingan foyda firmaning yakuniy sof foydasi nazarda tutilmoqda. Qisqa vaqtda yetkazib berish esa transport logistikaning aniq vaqtida «just in time» konsepsiya asosida ifodalanadi.

Biz transport logistika tizimlarini samaradorligini o'rganishda xarajatli yondashuv nuqtai nazaridan o'rganishni taklif qilamiz. Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'illanadigan sub'ektlarda odatda xarajatlar alohida logistik xarajatlar va transport xarajatlari deb yuritilmaydi. Ular umumiy bir turdagi xarajatlar sifatida qaraladi. Bu esa xarajatli yondashuv asosida o'rganishdagi asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Logistik xarajatlar degandalogistik jarayonlar kompleksini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan barcha xarajatlar jamlanmasi tushuniladi.

Bu yerda logistik jarayonlar deyilganda korxonalar iqtisodiy faoliyatidagi tashish, saqlash va boshqa jarayonlarni rejalashirish metodlarini ishlab chiqish, boshqarish va muvofiqlashtirish tushuniladi. Endi esa ta'rifda keltirilgan

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

xarajatlar jamlanmasiga to'xtalsak. Logistikada xarajatlar deyilganda yuklarni omborga joylashtirish, ularni saqlash, yetkazib berish, qayta yuklash va tashish bilan aloqador xarajatlari tushuniladi. Bundan tashqari moliyaviy xarajatlar ham mavjud bo'lib ularga: omborni saqlab turish xarajatlari, haydovchilarni shtatda ushlab turish xarajatlari yoki outsorsing transport tizimlari, logistik jarayonga aloqador logistlar va boshqa mutaxassislarning ish haqi xarajatlari kiradi.

Shu xarajatlarni tashish jarayoniga bog'liqligiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Bevosita xarajatlar- tashiladigan yuklarni saqlash, qadoqlash, tashishda kerak bo'ladigan vositalarni xarid qilish va shu bilan bog'liq xizmatlarga sarflangan xarajatlar kiradi.
2. Bilvosita xarajatlar- bu xarajatlarga logistika xizmati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi. Bunga omborlarni tozaligini saqlash uchun maxsus dezinfeksiya va sanitariya xodimlarni jalb qilishni misol qilish mumkin..
3. Doimiy xarajatlar- ishchilarning ish haqi, isitish va yoritish xarajatlari.
4. Tartibga solinmaydigan xarajatlar- bu logist tomonidan

hisoblab bo'lmaydigan xarajatlar kiradi. Boshqa raqobatchi korxonalar yoki logistik zanjirda ishtirok etuvchi boshqa korxonalar ta'sirida yuzaga keladigan yoki o'zgaradigan xarajatlar.

5. Produktiv xarajatlar-qo'shimcha qiymatga ta'sir etuvchi xarajatlar bo'lib, ular mijozlar, sotib oluvchilar qiziqishi asosida yuzaga keladi va bu xarajatlar ular tomonidan mustaqil qoplanadi.

6. Faoliyatni qo'llab-quvvatlash xarajatlari - bunga xizmatlarni sotish, mahsulotlarning hisobini yuritish, dasturiy ta'minotni yangilash, asbob-uskunalar ta'mirlash xarajatlari kiradi.

7. Xizmatlarni nazorat qilish xarajatlari - bunga ish jarayonida shikastlanish, ortiqcha zararlarni oldini olish va bartaraf qilish bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etish xarajatlari.

Biz tomonimizdan xarajatlar korxonada ichidagi jarayonlarga asoslangan holda guruhlangan. Lekin logistik zanjir faoliyatida barcha ishtirokchilarning umumiy jihatlarini ham inobatga olish zarur. Yuqoridagi xarajatlar guruhida faoliyatni tashkil etish doimiy aloqani ta'minlash alohida aks etmagan va qaysi guruhga kirish e'tirof etilmagan 1-jadval.

1-jadval.

Transport-logistika korxonalarida xarajatlarning guruhlanishi [10]

SAQLASH XARAJATLARI	1. Omborlarni qurish (yoki ijaraga olish), saqlash, ta'mirlash, yoritish, zarur haroratda ushlab turish va x.k. 2. Omborda yuklarni saralash, ortish, tushirish, tashishda kerak bo'ladigan vositalarni xarid qilish va bu ishlarni bajaruvchi ishchilarga mehnat haqi xarajatlari. 3. Qo'riqlash, sug'urtalash xarajatlari
TASHISH	1. Turli masofaga mo'ljallangan va turli sig'imdagi transport vositalarini sotib olish, ijaraga olish xarajatlari 2. Yoqilg'i va ish haqi xarajatlari 3. Transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari
REJALASHTIRISH XARAJATLARI	1. Tashish yo'nalishini aniqlash bilan bog'liq xarajatlar. 2. Yuk tashish uchun mos transport vositasini aniqlash va topish bilan bog'liq xarajatlar. Multimodal tashishlarda transport vositalarini almashtirish vaqti va joyini belgilash xarajatlari. 3. Bojxona postlarida yuklarni o'tishini ta'minlash 4. Sug'urta xarajatlari
NAZORAT QILISH	1. Yuklarni xarakatini doimiy kuzatish uchun dasturiy ta'minot uchun xarajatlar 2. Sun'iy yo'ldoshga ulanish va undan foydalanish xarajatlari.

1-jadvlada keltirilgan xarajatlar hamma korxonada uchun umumiy emas. Har bir korxonaning faoliyati miqiyosi, mulkchilik shakli va xizmat ko'rsatish turiga qarab boshqacha guruhlanishi mumkin. Alohida, maxsus xarajatlar guruhi qo'shilishi ehtimoli mavjud.

Logistikadagi umumiy xarajatlar tarkibida funksional sohalarning ulushi quyidagicha: transport - 46 %, omborda saqlash - 26%, xaxiralar - 10% va boshqalar - 18%. Transportning ulushi sezilarli darajada yuqori. Chunki bu asosiy vositalarni xarid qilish, saqlash, ta'mirlash

bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Mahsulotlar zaxirasini ko'p miqdorda va uzoq vaqt omborlarda saqlash ham xarajatlarni oshirib, samaradorlikning pasayishiga sabab bo'ladi. Bu sohada samaradorlikni oshirishning eng yaxshi yo'li jarayonlarni avtomatlashtirishdir. Ammo bu u qadar oson emas. Ancha yillik tajribaga ega transport-logistik korxonalarda avtomatlashtirishdan foydalaniladi. Ammokichik firmalar uchun bu ancha qiyin, ko'p vaqt va katta xarajat talab qiladi. Shunda ham jarayonlar to'liq avtomatlashtirish imkoni mavjud emas. Kishilarning tashish va saqlash tizimlari dagi ishtirokiga zaruriyat ma'lum darajada mavjud bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Jahon amaliyotida mavjud bo'lgan, adabiyotlarda yoritilgan logistika turlarini qisqagina ifodalab, ular orasida bevosita bizning tadqiqotimizning negizi bo'lgan transport logistikasiga alohida to'xtalgan. Uning mavjud ta'riflari o'rganilib, zaruriyati, nechog'lik ahamiyatli ekanligi, uning maqsad va vazifalariga to'xtalib o'tilgan.

Samaradorlik va transport-logistika tizimlarida samaradorlik haqida olimlar izlanishlari o'rganilib o'zta'rifimizni taklif etganmiz. Samaradorlik trilemmasi atamasiga o'z yondashuvimiz nuqta nazaridan ta'rif berilgan. Transport logistika xizmatlarini amalga oshirishda korxonada yuzaga keladigan xarajatlar guruhlanib ularga nimalar kirishi sanab o'tilgan.

Bundan tashqari transport logistika tizimlarida ta'sir etuvchi omillar 4 guruhga ajratilib, ularga birma-bir ta'rif berilgan. Bu omillarning ta'siri haqida aytib o'tilgan. Transport-logistika tizimlari, innovatsiya va atrof-muhit samaradorligining o'zrao bog'liqligi chizma orqali ifodalanganmiz.

Transport-logistika tizimlari transport va logistika tizimlariga ajratilib ularga aynan qaysi xizmatlar kirishi ko'rsatilgan. Ularning ta'riflari, umumiy va alohida jihatlari tavsiflangan. Transport va ekspeditorlik tizimlarining farqi ham aytib o'tilgan.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Eshqobilova, Nargiza Mingniyorovna - Denov tadbirkotlik pedagogika instituti tadqiqotchisi / Эшқобилова, Наргиза Мингниёровна - соискатель Деновского института предпринимательства и педагогики / Eshqobilova, Nargiza Mingniyorovna - Researcher at the Denov's institute of Entrepreneurship

► eshqobilovanargiza1@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0009-9788-4853>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. 11.09.2023-yil.
- [2]. Dantzig, G.B., Topolšek D., Čičiūnienė K., Cvahte O.T. Defining transport logistics: a literature review and practitioner opinion based approach.
- [3]. Ramser, J. H. 1959. The truck dispatching problem, *Management Science* 6 (1): 80–91. Lai, K.-H.; Ngai, E. W. T.;
- [4]. Cheng, T. C. E. 2004. An empirical study of supply chain performance in transport logistics, *International Journal of Production Economics* 87 (3): 321–331. Lun, Y. H. V.; Lu, C.-S. Hinterland transport chains: A behavioral examination approach.
- [5]. Lyovin, K.-H. 2009. Introduction to the special issue on transport logistics and physical distribution, *International Journal of Production Economics* 122 (1): 1–3. Wong, C. W. Y.; Lyovin, K.-H.; Ngai, E. W. T. 2009b. The role of supplier operational adaptation on the performance of IT-enabled transport logistics under environmental uncertainty, *International Journal of Production Economics* 122(1): 47–55.
- [6]. Ковалев. М.М, Королева А.А., Дутина А.А. Транспортная логистика в Беларуси: состояние, перспективы. Монография. Минск, БГУ- 2017, 328 стр.
- [7]. Саматов Р.Г., Ахмедов Д.Т., Юсуфхонов З.Ю. Перспективы развития эффективности логистики, Ярашова В.К. Методы повышения эффективности логистики в международных рейтингах,
- [8]. Zokirkhan Yusufkhonov, Malik Ravshanov, Akmal Kamolov, and Elmira Kamalova. Improving the position of the logistics performance index of Uzbekistan. *E3S Web of Conferences* 264, 05028 (2021),
- [9]. Кодиров Т.У., Юсуфхонов З.Ю. У., & Ахмедов Д.Т. У. (2021). Анализ факторов, влияющих на рейтинг индекса эффективности логистики Республики Узбекистан. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (6), 245-252.
- [10]. <https://logistika.uz/info/articles/1476>
- [11]. М. Куринна "Идеология" транспортной логистики, БОСС №5 2000;
- [12]. «Ekonomika» izohli lug'ati, I.M. Osadchaya umumiy taxriri ostida, 2000 y
- [13]. Экономико-математический словарь: Словарь современной экономической науки. Л.И.Лопатников.,–М.: Дело. 2003
- [14]. Finam- elektron moliyaviy atamalar lug'ati, www.finam.ru
- [15]. «Iqtisodiyot nazariyasi» Sh.Shodmonov, U.V. G'ofurov, Darslik, Toshkent, 2005, 77 bet.

Тиббий хизматлар бозори вужудга келишининг минтақавий хусусиятлари

Кесимов, Даврон Бобомуродович

Региональные особенности рынка медицинских услуг

Кесимов, Даврон Бобомуродович

Regional features of the medical services market

Kesimov, Davron Bobomurodovich

Received: September 4, 2024 Revised: September 6, 2024

■ Accepted: September 10, 2024 ■ Published Online: October 1, 2024

Аннотация: Мақолада тиббий хизматларнинг пайдо бўлиши ва уларнинг ривожланишидаги босқичлари ўз аксини топган. Шунингдек, тиббий хизматлар кўрсатишда минтақавий хусусиятлари, ривожланиши, тиббий хизматларнинг миллий анъана ва қадриятлар билан уйғунлашиб кетганлиги, аҳоли эҳтиёжининг мавжудлиги ва тиббий хизматларнинг минтақа иқтисодиётига таъсири билан боғлиқ илмий асосланган таклиф ва тавсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: тиббий хизматлар, аҳоли эҳтиёжи, миллий анъана ва қадриятлар, ривожланиш босқичлари, бозор, минтақа, самарадорлик.

Аннотация: В статье отражено возникновение медицинских услуг и этапы их развития. Также представлены научно обоснованные предложения и рекомендации относительно региональных особенностей медицинского обслуживания, его развития, совместимости медицинского обслуживания с национальными традициями и ценностями, наличия потребностей населения, влияния медицинского обслуживания на экономику региона.

Ключевые слова: медицинские услуги, потребности населения, национальные традиции и ценности, этапы развития, рынок, регион, эффективность.

Abstract: The article reflects the emergence of medical services and the stages of their development. Also presented are scientifically based proposals and recommendations regarding the regional characteristics of medical services, its development, the compatibility of medical services with national traditions and values, the needs of the population, and the impact of medical services on the economy of the region.

Key words: medical services, needs of the population, national traditions and values, stages of development, market, region, efficiency.

КИРИШ.

Ўзбекистон республикасида тиббиёт амалиётининг пайдо бўлиши бой тарихга эга бўлиб, унинг вужудга келиши ва ривожланиши узоқ даврларга бориб тақалади. Хаттоки, инсониятнинг пайдо бўлиши билан боғлаб тушунтириш ҳақиқатга яқин бўлади. Чунки тиббиёт инсон фаолиятининг муҳим бир соҳаси сифатида бошқа кўп соҳалардан илгарироқ пайдо бўлган. Масалан, ибтидоий одамлар ўзлари учун ҳали турар жой қуриш, кийим тикиш ва овқат пиширишни билмай туриб, баъзи кассалликлардан табиий омиллар ёрдамида шифо топиш сирларини билиб олганлар. Ибтидоий одамлар ноқулай қийинчилик шароитларида яшаб табиат инжиқликлари ва тан жароҳатлари туфайли ортирилган касалликлардан қутилиш мақсадида, дастлабки оддий муолажа усуллари кашф қилинган.

Шу тариқа халқ табобати санъати ўтмишимизнинг бой меросига айланишига сабаб бўлди ва узоқ тарихий даврлардан турли қарашлар, анъаналар ва қадриятлар замирида сайқалланиб ривожланиб бизгача етиб келди.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ.

Тиббий хизматлар соҳасининг назарий асослари ва хизматлар бозорини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари Ўзбекистонда тиббий хизматлар бозори Р.Райимбердиева [1], Д.А.Раҳмонов [2], К.С.Саидов [3], А.Ў.Султонова [4], М.Р.Туртаев [5], М.Н.Умурзақова [6], З.Х.Базаров [7], Т.Г.Хайруллаевалар [8] нинг илмий асарларида тадқиқ қилинган.

Ушбу тадқиқотчилар томонидан тиббий хизматлар бозори ривожланишининг айрим умумназарий жиҳатларини тадқиқ этишга устувор ўрин берилган ҳолда, тиббий хизматлар кўрсатишда ижтимоий бозор муносабатларини ривожлантириш талабларига ёндашиб таҳлил қилинган илмий ишлар етарли эмас. Жумладан, А.Султонова, Т.Хайруллаеваларнинг илмий тадқиқот ишларида соғлиқни сақлашни давлат томонидан тартибга солиш ва ислоҳ қилишда бозор механизмнинг аҳамияти ва халқаро тажрибаларга, М.Туртаев тиббий хизматлар кўрсатишда маркетингдан фойдаланишга, М.Умурзақова ва З.Базаровлар соғлиқни сақлашда мажбурий тиббий суғурта тизимини амалга ошириш имкониятлари ва тиббий суғурталаш амалиётини такомиллаштириш йўналишларигага кўпроқ эътибор қаратишган. Д.Раҳмонов ва О.Райимбердиевалар эса

устундаражада соғлиқни сақлашни молиялаштиришнинг бюджет ва бюджетдан ташқари манбалари ҳақида илмий тадқиқот олиб борганлар.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ.

Тадқиқот жараёнида тиббий хизматлар бозорининг вужудга келишининг хусусиятлари ва ривожланиш босқичлари масалалари қиёсий фикрлаш, индукция ва дедукция ҳамда абстракция усулларида кенг фойдаланилган.

АСОСИЙ ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР.

Тиббий хизматлар ривожланишининг хусусиятларини ўзида акс эттирувчи эволюциясидан келиб чиқиб, унинг вужудга келиши ва ривожланишининг беш босқичини фарқлаш мумкин.

Биринчи босқич ибтидоий жамоа даврининг охирига тўғри келиб, одамларнинг ўтроқ ҳаёт кечиришга ўтиши ва меҳнатнинг айрим соҳалар бўйича тақсимлана бошлаши туфайли, касб-корларнинг вужудга келиши натижасида, табобат билан шуғулланувчи табиблик касби ҳам шакллана бошлаган. Мазкур босқич узоқ тарихий даврни босиб ўтиб, токи ўрта асрларгача давом этди. Ушбу даврда табобат тарқоқ тиббий эҳтиёжларни қондиришга қаратилган ибтидоий жамоа кишининг энг оддий қобилиятдан, чуқурлашган санъат даражасигача бўлган тарихий тараққиёт йўлини босиб ўтди.

Бу пайтда касалликларни даволашда халқ табобати қаторида тиббий хизматлар дин вакиллари томонидан ҳам амалга оширилган. Дин вакиллари ижтимоий гуруҳ ҳисобланиб, беморларни даволаш, таълим бериш ва диний таълимларни тарғиб қилиш билан машғул бўлишган.

Тиббиётнинг маданийлаши ва фан сифатида шаклланишида ёзувнинг пайдо бўлиши янги даврни бошлаб берди. Айнан ёзув туфайли тиббиёт тарқоқ амалиётдан назарий фан билан уйғунлашди.

Ўрта Осиёда, хусусан, Ўзбекистон ҳудудида қадим замонларда яшаган халқларнинг тиббиёт ҳақидаги биринчи ёзма маълумотларини биз Зардуштийларнинг диний-муқаддас китоби “Авесто”дан топамиз.

Иккинчи босқич ўрта асрларга тўғри келиб, бу пайтнинг характерли томони шундаки, табобат илмий-назарий жиҳатдан ўрганила бошлади. Устоз-шоғирд тизими йўлга қўйилди, мактаблар ташкил қилиниб, тиббий

мактабларда ўқитиш ишлари анча юқори савияда олиб борилган. Ўқиш муддати тугаганидан сўнг бўлғуси ҳакамлар ҳамма фанлардан имтиҳон топширганлар. Шундан кейин уларга табиблик гувоҳномаси берилган [9].

Ўрта Осиё ва умуман, Шарқда табобат илми тарихида Абу носир Фаробий, Абу Али Ибн Сино, Абу Райхон Беруний, Абу Бакр-ар-Розийлар ўрни беқиёс бўлди. Ушбу алломаларнинг табобат соҳасидаги асарлари нафақат Ўрта Осиёда балки, умуман жаҳон тиббиётининг ривожланишига катта ҳисса қўшган. Масалан, Абу Али Ибн Синонинг “Тиб қонунлари”, Исмоил Журжонийнинг “Хоразмшоҳ хазинаси”, Наджибуддин Самарқандийнинг “Касалликнинг сабаблари ва белгилари”, “Дориларни тайёрлаш” каби асарлари дунё тиббиётининг олтин фондига киритилган.

Амир Темури замонида келиб маданий-маърифий масалалар қаторида тиббиёт сирларини ўрганишга ва уни ривожлантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

Амир Темури давлати харажатлари ичида илм-фан, маданият ва диний тадбирлар, ижтимоий ҳимоя билан боғлиқ харажатлар муҳим ўрин тутган. Амир Темури аҳоли саломатлигини муҳофаза қилишга, юқумли касалликларнинг олдини олишга, табибларга эътибор қаратишга бефарқ бўлмаган. Дунёнинг бошқа мамлакатларидан табибларни Самарқандга олиб келиб, махсус шифохоналар очган ва устоз-шогирдлик йўли билан табобат сирларини ўрганишга кенг ўрин берган.

Тиббий хизматлар вужудга келиши ва ривожланишининг учинчи босқичи, Чор Россияси томонидан Туркистоннинг истелосидан бошланиб, шўролар даврига қадар бўлган даврни ўз ичига олади. Бу даврдан бошлаб, Чор Россиясининг юртимизда ўз яшаш шарт-шароитини жорий этишга ва аҳолининг турмуш тарзини ўзгартиришга қилган уриниши, Европанинг маданий-маърифий оламига тақлид қилиш аста-секин ёйила бошлади. Чор Россиясининг мустамакани мустаҳкамлаш ва аҳолини тобелаштириш тадбирлари ҳамда ўз тараққиётининг шу даврдаги босқичи учун зарур ва қулай шартидан келиб чиқиб олиб борган сиёсати, рус тилида гаплашувчи фуқароларнинг кўчириб келиниши тиббий хизматлар кўрсатишда янги даврни бошлаб берди.

Шу тариқа, ушбу даврда аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш кенгайиб борган бўлсада, улардан аҳолининг барча қатлами тенг ва тўла фойдалана олмаган. Асосан, бозор тартиб-тамомойиллари асосида ривожланиб, уларнинг хизматидан пули борларгина фойдалана олган.

Тўртинчи босқич шўролар ҳукумронлик қилган даврдан мустақилликка қадар бўлган даврни ўз ичига олади.

Ушбу даврда тиббий хизматларнинг ривожланишида бозор муносабатлари ҳақида гапириш қийин. Бу пайтда Ўзбекистон ижтимоий-маданий хизматлар соҳаси борасида бир қанча ютуқларга эришди. Ижтимоий соҳа ихтисослашиб, иқтисодий тизим сифатида шаклланди ва тармоқлари алоҳидалашди.

Янги маънодаги таълим, соғлиқни сақлаш, маданий-маиший хизматлар, савдо ва умумий овқатланиш, уй-жой коммунал хўжалиги, йўловчи ташиш транспорти ва аҳоли муҳофазаси алоҳида тармоқ сифатида шаклланди ва булардан фойдаланиш аҳоли кундалик ҳаётининг бир қисмига айланди.

Бу пайтда соғлиқни сақлаш соҳасининг таркиб топиб ривожланишида ҳам бир қанча таркибий ва ташкилий ишлар амалга оширилди. Жумладан, соғлиқни сақлаш халқ комиссарлиги тузилиб, ўлкадаги мавжуд тиббиёт муассасалари давлат тасарруфига ўтказилди. 1919 йилдан Туркистон университетининг таркибида тиббиёт факультетининг очилиши муносабати билан Ўзбекистонда тиббиёт соҳасининг ривожланиши ва кадрлар масаласининг кўпайишига имкон берди.

Мазкур босқичнинг муҳим жиҳати шундаки, унда шакланган ишлаб чиқариш, илмий-техникавий ва кадрлар салоҳияти келгусида ижтимоий соҳа ривожланишига хизмат қилди.

Бешинчи босқич республикаимиз мустақилликни қўлга киритганидан бошлаб, ҳозирги кунга қадар давом этмоқда. Бу даврнинг характерли томони шундаки, мамлакатимиз ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига ўтиш йўлини танлади ва ижтимоий сиёсат юргизилди. Мазкур вазибаларни амалга оширишнинг устувор йўналиши қаторидан соғлиқни сақлашни ислоҳ қилиш жой олди.

Ушбу босқични шартли равишда тўрт даврга бўлишимиз мумкин:

Биринчи даврга 1991-1997 йиллар тўғри келади. Бу даврда соғлиқни сақлаш соҳаси қайта тузилиб, ҳуқуқий, иқтисодий, молиявий асослари яратилди ва ривожланиш йўналишлари белгилаб олинди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 21 майдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқлари ижтимоий инфратузилмасини 2000 йилгача бўлган даврда ривожлантириш дастури тўғрисида”ги қарорига мувофиқ, соғлиқни сақлашнинг бирламчи бўғинида хусусан, қишлоқ жойларда аҳолига тиббий хизматларни яқинлаштиришда жиддий ўзгаришлар рўй берди. Самарасиз ишлаётган фельдшерлик-акушерлик пунктлари ўрнида замонавий типда, диагностика ва даволаш ускуналари билан жиҳозланган 3 мингдан ошиқ қишлоқ врачлик пунктлари барпо этилди.

Барча вилоятлар марказлари ва Тошкент шаҳрида

бўлажак оналар саломатлигини мунтазам назорат қилиб борадиган, соғлом болалар туғилишига хизмат қиладиган кенг тармоқли скрининг-марказлари йўлга қўйилди. Бунинг натижасида оналар ва болалар ўртасида ўлим даражасининг изчил пасайишига эришилди.

Аҳолига тез тиббий ёрдам кўрсатиш мақсадида республика, вилоят, туман марказларида 171 та тез тиббий ёрдам марказлари ташкил қилиниб, тез тиббий ёрдам кўрсатиш бўйича ягона тизим яратилди.

Иккинчи давр 1998-2005 йиллар оралиғини ташкил қилиб, бу даврда тиббий хизматларни ривожлантириш борасида эришилган тажрибалар таҳлил қилиниб, аниқ белгиланган чора-тадбирлар қўлланилди. Тиббий хизматлар сифатини ошириш ва мустаҳкамлаш, янгилаш ҳамда қўшимча хизматларни яратиш тадбирлари олиб борилди. Соғлиқни сақлашни молиялаштиришда бюджет ва бюджетдан ташқари механизмлари жорий этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 10 ноябрда қабул қилган 1998-2005 йилларга мўлжалланган “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш Давлат дастури” асосида тиббий хизматлар кўрсатишда экстенсив йўлдан интенсив йўлга ўтиш ва аҳоли соғлиғини сақлашнинг миллий моделини яратишга қўл урилди.

Юқори ва сифатли ихтисослаштирилган тиббий ёрдамни кўрсатиш тизимини таъминлаш мақсадида, республикада махсус касалликларга қарши ихтисослаштирилган марказлар ташкил этилди. Уларнинг вилоят, туман бўлимлари фаолияти йўлга қўйилди. Шунингдек, Республика ОИТСга қарши курашиш маркази унинг вилоятлардаги 14 та филиали, республика, вилоят ва туман соғлиқни сақлаш бошқармалари ҳузуридаги 78 та ОИВ диагностикаси лабораторияларини қамраб олган умуммиллий муассасалар тармоғи яратилди.

Республикада оналик ва болаликни муҳофаза қилиш ишлари бўйича Жаҳон Соғлиқни сақлаш ташкилоти, ЮНИСЕФ, ЮНФПА, ЮСАИД ва бошқа халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликда бир қанча соғломлаштириш дастурлари амалга оширилди.

Учинчи давр 2006-2016 йилларга тўғри келади. Бу пайта Ўзбекистон Республикаси Президентининг соғлиқни сақлашни ислоҳ қилишга бағишланган бир нечта қарорлари амалиётга тадбиқ этилиб, тиббий хизматлар кўрсатишни такомиллаштиришга ҳамда тиббиётнинг бирламчи-санитария бўғинини кенгайтириш мақсадида “Саломатлик-1” “Саломатлик-2” ва “Саломатлик-3” лойиҳалари амалга оширилди. Давлат сектори қаторида нодавлат секторнинг ривожланишига имкон берилди.

Тиббиёт тизимини ислоҳ қилиш дастурларини биргаликда молиялаштириш учун Жаҳон банки, Осиё

тараққиёт банки, Ислон тараққиёт банки ва хорижий ҳукуматлар, молия ташкилотларининг жами 335,1 миллион доллар миқдордаги узоқ муддатли имтиёзли кредитлари, инвестиция ва грантлари жалб қилинди [10]. Тўртинчи давр 2017 йилдан бошланиб, тиббий хизмат кўрсатиш ривожланишини янги босқичга олиб чиқди. 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси асосида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони том маънодаги тарихий ҳужжат сифатидаги аҳамиятга эга бўлди. Ҳаракатлар стратегиясининг тўртинчи йўналиши ижтимоий соҳани ислоҳ қилишга қаратилиб, таркибий жиҳатдан соҳа ривожидан туб бурилиш ясади [11].

Соғлиқни сақлашни жаҳон стандартлари асосида ривожланишига, хусусий сектор фаолиятининг мустаҳкамланишига алоҳида эътибор қаратилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасининг соғлиқни сақлаш тизимини ривожлантириш Концепцияси тўғрисида”ги ПФ-5590-сон Фармони асосида соғлиқни сақлашни ривожлантиришнинг йўл харитаси ишлаб чиқилди.

Бугунги кунда Ўзбекистонда тиббий хизматлар ривожланишининг хусусиятларини миллий иқтисодийётдаги роли ва аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда таркибий ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Ушбу ўзгаришлар натижасида аҳолига пуллик ва бепул хизматлар кўрсатиш ҳажми ўсиб, у асосан турли тиббий хизматлар ва профилактик тадбирлар ҳисобига рўй берди. Бу ишлар қуйидаги шарт-шароитларга мувофиқ амалга оширилди:

- мамлакатда қулай сиёсий-иқтисодий шароитнинг мавжудлиги;
- янги турдаги хизматларни тақдим этмоқчи бўлаётган тадбиркорлар гуруҳининг шаклланиши;
- тиббий хизматларни ривожлантиришга қаратилган ҳуқуқий базанинг такомиллаштирилаётганлиги;
- аҳоли таркибида сифатли хизматларга бўлган талабнинг ўсаётганлиги;
- республикада хорижий мамлакатлар билан мустаҳкам алоқанинг шаклланиши ва бошқалар.
- Юртимизда тиббиёт олами пайдо бўлишининг узоқ ўтимиши ва ҳилма-хиллиги ўзига хос жиҳатларини кўрсатади. Шу боис, тиббий хизматлар вужудга келиши ва эволюцион ривожланишининг қуйидаги хусусиятларини фарқлаш мумкин:
- тиббий хизматлар вужудга келиши ва ривожланиши кишилик жамиятининг шаклланиши даврлари билан боғлиқлиги;
- тиббий хизматларнинг миллий анъана ва қадриятлар билан уйғунлашиб кетганлиги;

- тиббий хизматларнинг юртимизда турли даврларида жаҳон билан ҳамжиҳат ривожланганлиги;
- тиббий хизматларга бўлган аҳоли эҳтиёжининг мавжудлиги;

- тиббий хизматларнинг айрим даврларда босқинчилар таъсири остида ривожланганлиги.

Соғлиқни сақлаш соҳаси ҳозирги замонавий шароитда мамлакатимиз иқтисодиётининг энг ўсиб боровчи ва эътиборли соҳасига айланиб бормоқда. Айнан шу соҳада иқтисодий фаол аҳолининг катта қисми тобора

кўп миқдорда тўпланмоқда, мамлакат ялпи ички маҳсулотининг ўсишига, аҳоли турмуш даражасининг яхшиланишига сезиларли таъсир ўтказмоқда.

Таҳлилларимиз, 2018-2023 йилларда соғлиқни сақлаш ва ижтимоий хизматларда банд бўлганлар улуши 108,2 фоизга ошганлигини кўрсатади. Бундан кўришимиз мумкинки, соғлиқни сақлаш тобора иқтисодиётнинг локаматив тармоқларидан бирига айланмоқда (1-жадвал).

1-жадвал

Ижтимоий хизматларда банд бўлган аҳолининг таркиби (минг киши) [12]

КЎРСАТКИЧЛАР	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил	2023 йил	2023 йилда 2018 йилга НИСБАТАН % ДА
Савдода	1452,4	1480,2	1401,8	1436,4	1364,4	1535,6	105,7
Соғлиқни сақлаш ва бошқа ижтимоий хизматларда	601,6	602,6	604	616,7	652,1	650,8	108,2
Таълим соҳасида	1105,6	1106,6	1111,7	1134,4	1160	1220,5	110,4

Шу жумладан, статистик маълумотлар таҳлил қилинаётган даврда кўрсатилган тиббий хизматлар ҳажми бошқа ижтимоий хизматлар билан қўшиб

ҳисоблаганда 3,6 мартага кўпайганлигини кўрсатади (2-жадвал).

2-жадвал

Ижтимоий соҳа фаолиятининг асосий турлари бўйича кўрсатилган хизматларнинг ҳажми (млрд. сўм ҳисобида) [12]

КЎРСАТКИЧЛАР	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил	2023 йил	2023 йил 2018 йилга НИСБАТАН, МАРТА
Савдо хизматлари	27368,2	32006,9	39743,4	48748,2	56553,9	72483,3	2,6
Соғлиқни сақлаш ва бошқа ижтимоий хизматларда	1416,3	1701,5	2220	3104,3	3209,4	5105,9	3,6
Таълим хизматларида	3263	4402	5416,5	7164,9	9073	12021,8	3,7

Соғлиқни сақлаш келажакда иқтисодий ўсишга эришишнинг салоҳиятли омили ва имконияти экан, ундан унумли фойдаланилгандагина тараққиёт манбаига айланиши мумкин. Мамлакатимизда қисқа даврда тиббий хизматларни мустаҳкамлаш юзасидан зарур чора-тадбирларни қўлланилди. Бу чора-тадбирлар аҳолининг тиббий хизматлардан фойдаланиш даражасининг кескин пасайишининг олдини олди ва тиббий хизматларнинг барқарор ривожланишида

маълум муваффақиятларга эришилди. Шунинг учун аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш даражаси Ўзбекистон ижтимоий сиёсатининг устувор йўналишига айланган ва тиббий хизматларни замонавий мезонларга жавоб берадиган даражага кўтариш ва унинг самарадорлигини ошириш масалаларини, бугунги кунда энг долзарб, ҳаётнинг ўзи талаб қилаётган муҳим бир вазифага айлантиришни назарда тутди.

■ ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР.

Ижтимоий хизматлар тушунчаси ва уни ўрганишга бағишланган назарий қарашлар эволюцияси, тиббий хизматларнинг ижтимоий хизматлар шакли сифатидаги мазмуни, таркибий тузилиши ва иқтисодий категория сифатидаги аҳамиятини, тиббий хизматлар вужудга келишининг хусусиятлари ва ривожланиш босқичларини илмий-назарий ўрганиш асосида қуйидаги хулосага келинди.

1. Тиббий хизматларнинг қандай даражада ривожланганлиги маълум маънода мамлакатдаги сиёсий ва ижтимоий ҳолатни, аҳолининг умумий кайфиятини белгилайди.
2. Тиббиётнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши узок ўтмишимиз билан боғлайди. Қадимда табобат амалиёти ибтидоий жамоа кишисининг энг оддий даволаш усулидан ҳозирги замонавий такомиллашган тиббий хизматларгача бўлган масофани босиб ўтганлигига юртимизнинг тиббиёт тарихидан гувоҳлик беради.
3. Тиббиёт ривожланишининг эволюциясини ўрта асрларгача бўлган даврни алоҳида, ўрта асрлардан кейинги Чор Россияси истелосигача бўлган ва Чор Россияси истелоси даврини ҳамда мустақилликкача бўлган ва мустақилликдан кейинги даврларни алоҳида – алоҳида босқичларга ҳамда мустақилликдан кейинги пайтларда тиббий хизматлар ривожланишини олиб борилган ислохотлардан келиб чиқиб бир неча даврларга бўлиб ўрганиш, тиббий хизматлар вужудга келиши ва ривожланиши ҳақидаги тасаввурларимизни бойитади.
4. Мамлакатимизда тиббий хизматлар вужудга келиши ва эволюцион ривожланишининг муҳим хусусиятларини кишилик жамиятининг дастлабки даврлари билан боғлиқлиги, тиббий хизматларга ҳар доим ҳам аҳолида эҳтиёжнинг мавжуд бўлганлиги, тиббий хизматларнинг қадрият ва анъаналаримиз билан уйғунлашиб кетганлигида кўриш мумкин.

Муаллиф ҳақида / Сведения об авторе / Author details

1. Кесимов, Даврон Бобомуродович - Қарши муҳандислик-иқтисодий институтини мустақил изланувчиси / Кесимов, Даврон Бобомуродович - Независимый исследователь Каршинского инженерно-экономического института / Kesimov, Davron Bobomurodovich - Independent researcher at the Karshi Engineering and Economics Institute
 ► davronkesimov85@gmail.com
 ■ <https://orcid.org/0009-0003-5385-8721>

Фойдаланилган адабиётлар:

- [1]. Райимбердиева О.Р. Соғлиқни сақлаш муассасаларини молиявий таъминлашни ташкил қилиш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. автореферати. -Т.: 2001 – 21 б.
- [2]. Раҳмонов Д.А. Ўзбекистонда ижтимоий соҳани молиялаштиришнинг методологик асосларини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати: - Т.: БМА, 2018-72 б.
- [3]. Саидов К.С. ва бошқалар. Социал иқтисодиёт. -Т.: Ўзбекистон, 2006. –365 б.
- [4]. Султонова А.Ў. Соғлиқни сақлашни бозор муносабатлари орқали тартибга солишнинг халқаро амалиёти. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. -Т.: ТДИУ, 2001. – 21 б.
- [5]. Туртаев М.Р. Маркетинг медицинских услуг в условиях рыночных реформ и пути его совершенствования. Автореферат дис. на соиск.учен.степени к.э.н. - Т.: ТГЭУ. 2005 - 23 с.
- [6]. Умурзақова М.Н. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишда тиббий суғуртани ривожлантириш истиқболлар и.ф.д. (Phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. -Т.: ТДИУ, 2021. – 26 б.
- [7]. Базаров З.Х. Ўзбекистонда тиббий суғурталаш амалиётини такомиллаштириш. и.ф.д. (Phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. -Т.: ТДИУ, 2021. – 26 б.
- [8]. Хайруллаева Т.Г. Социально-экономические аспекты реформирования здравоохранения Республики Узбекистан в новых экономических условиях. Автореферат дис. на соиск.учен.степени к.э.н. -Т.: АН РУз. 2004 - 26 с.
- [9]. Қодиров А.А. Тиббиёт тарихи.-Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2005. – Б 54.
- [10]. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. – Т.: “Ўзбекистон”, 2011. – Б. 21.
- [11]. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони <https://lex.uz/docs/3107036>.
- [12] www.stat.uz

Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik

Малый бизнес
и частное
предпринимательство

Small business and
private entrepreneurship

Hududlarda aholi bandligini ta'minlashdagi muammo va istiqbollar

Turobov, Sherzod Alisherovich

Проблемы и перспективы обеспечения занятости населения в регионах

Туробов, Шерзод Алишерович

Problems and prospects of ensuring employment in the regions

Turobov, Sherzod Alisherovich

Received: September 20, 2024 Revised: September 22, 2024

■ Accepted: September 25, 2024 ■ Published Online: October 1, 2024

Annotatsiya: maqolada hududlarda, xususan Qashqadaryo viloyatida viloyati tumanlarida aholini ish bilan ta'minlash muammo va istiqbollari o'rganilgan. Mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar olib borgan tadqiqotlar, statistik hisobotlar va davlat dasturlari tahlil qilingan. Qashqadaryo viloyatida mehnat, bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Hududlarda aholi bandligini ta'minlash xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hudud, ishsizlik, mehnat, band aholi, ish o'rni, qishloq xo'jaligi, mehnat bozori, ta'lim, bandlik.

Аннотация: в статье изучены проблемы и перспективы обеспечения занятости населения в регионах, в частности, в районах Кашкадарьинской области. Проведен анализ исследований иностранных и местных ученых по данной теме, статистических отчетов и государственных программ. Были проанализированы показатели труда, занятости и безработицы в Кашкадарьинской области. Разработаны выводы и предложения по обеспечению занятости населения в регионах.

Ключевые слова: регион, безработица, рабочая сила, занятое население, рабочее место, сельское хозяйство, рынок труда, образование, занятость.

Abstract: the article examines the issues and prospects of ensuring employment in the regions, particularly in the districts of the Kashkadarya region. Research conducted by foreign and local scientists on the topic, statistical reports, and state programs have been analyzed. Indicators of labor, employment, and unemployment in the Kashkadarya region were analyzed. Conclusions and recommendations for ensuring employment in the regions have been developed.

Key words: region, unemployment, labor force, employed population, workplace, agriculture, labor market, education, employment.

■ KIRISH.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida mehnat bozorida plyurallik kuchayib borishi natijasida uning dolzarbligi oshib bormoqda. Ba'zi yuqori daromadli mamlakatlarda mehnat resurslari yetishmasligi muammosi kuzatilayotgan bo'lsa, turli past va o'rta daromadli mamlakatlar ish o'rinarining yetishmasligi muammosiga duch kelmoqdalar. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi soni tez sur'atlar bilan ko'paymoqda, bu esa yosh avlod uchun yangi ish o'rinariga ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Boshqa tomondan, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish sonining kamayishi natijasida mehnat bozorida holat keskinlashmoqda. Shu bilan bir qatorda hududlarda aholi bandligi masalasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Joylarda ishsizlik darajasining yuqori bo'lishi hududiy va milliy darajada ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Aholining daromad manbaiga ega bo'lmasligi natijasida ijtimoiy tengsizlik kuchayadi, turmush darajasi pasayadi va ijtimoiy noqulayliklar ortadi. Shu bilan birga, band bo'lmagan aholi qatlamining iqtisodiy resurslardan yetarli darajada foydalanmasligi iqtisodiy o'sishni ham sekinlashtiradi. Aksincha, aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hududiy iqtisodiyotni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu borada mamlakatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, jumladan, 2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi ishlab chiqilib, unga asosan, 2024-yilda 5 million aholining doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta'minlash nazarda tutilgan [1].

Turli hududlarda aholi bandligini ta'minlashda o'ziga xos muammolar mavjud. Shaharlarda yuqori texnologiyalar va sanoat rivojlanishi bilan birga xizmatlar sohasi kengaygani sababli bandlik muammosi qishloq joylarga nisbatan biroz osonroq hal etiladi. Biroq, qishloq hududlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga bo'lgan qaramlik, infratuzilma yetishmovchiligi va ishlab chiqarish quvvatlarining cheklanganligi sababli ish o'rinlari yaratish murakkab kechadi. Ayniqsa, qishloq yoshlari orasida ishsizlik darajasi yuqori bo'lib, ularni hududiy iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish katta muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat aholi migratsiyasiga sabab bo'ladi, ya'ni ko'plab yoshlar va malakali ishchi kuchi ish izlab shahar va xorijiy mamlakatlarga borib ishlashga yoki mamlaktdan ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Yuqorida keltirilgan sabab va oqibatlar biz biz o'rganayotgan tadqiqot ishining dolzarbligini asoslaydi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur maqolani yozishda hududlarda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va bu yo'nalishda tadqiqot olib borgan xorij va respublikamiz olimlari tadqiqot ishlari o'rganildi. Statistik kuzatish, jamlash, guruhlash, dinamik tahlil, hududiy taqqoslash va iqtisodiy-geografik tahlil metodlaridan keng foydalanilib, tadqiqot natijalari shakllantirildi.

■ ADABIYOTLAR SHARHI.

Hududlarda aholi bandligini ta'minlash, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, farovonlik darajasini oshirish va mehnat resurslarini ilg'or halqaro amaliyotlarga tayyorlash muammolari har qaysi mamlakat uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy ahamiyat kasb etib, o'zining dolzarbligini umuman yo'qotmaydi.

Mehnat bozorida ishsizlik masalasida xorijlik olimlar A.Smit, M.Fridmen, U.Petti, D.Rikardo va boshqalar tomonidan chuqur tahlillar olib borilgan. Mamlakatimiz olimlaridan Q.X.Abdurahmonov [2] mehnat bozorini samarali rivojlanishi va ishsizlikni kamaytirish, Z.Y.Xudoyberdiyev [3] tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi va M.M.Xolmuxamedov [4] mehnat borasida yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish bo'yicha tadqiqot olib borishgan.

Mehnat bozori va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari borasida tadqiqot olib borgan Sh.Ch.Soyan va O.O.Oorjaklarning fikricha, "Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasining mehnat salohiyatining asosiy xususiyatlari sifatida tug'ilish darajasining pastligi va o'lim darajasining yuqoriligi sababli iqtisodiy faol va mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarishi hisoblanadi. Bunda, iqtisodiy tabiatga ega bo'lgan ikki asosiy muammoni ajratib ko'rsatish mumkin: mehnat kuchiga talabning mavjudligi, lekin taklifning yetishmasligi va ishchi kuchi yetishmasligi sababli yalpi ichki mahsulotning (YaIM) intensiv o'sishining sustlashishi" [5, b. 29]-degan fikrni ilgari surishgan.

BMT Taraqqiyot dasturining "Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun strategik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida milliy ekspertlar guruhi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, mamlakatimizda norasmiyiniy bandlik darajasini qisqartirishda soha iqtisodiyotini qisqartirishga qaratilgan umumiy ishbilarmonlik muhiti va investitsiya iqlimini yaxshilash bilan birga, mehnatga solinadigan soliqlar va yig'imlarni, masalan, ish haqidan ajratiladigan ijtimoiy to'lovlar, yagona ijtimoiy to'lov, jismoniy shaxslarning daromad solig'i, majburiy pensiya jamg'armalariga to'lovlarni sezilarli darajada kamaytirish va soddalashtirish kerakligi, norasmiyiniy bandlikni aniqlashda ilg'or xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan usullar va yondashuvlarni joriy etish orqali davlat organlari tomonidan

norasmiy bandlikni qisqartirishga qaratilgan to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun zarur ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozimligi bo'yicha tavsiyalar berishgan [22, b. 22].

Mardonov B.B. o'zining "Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirish" mavzusidagi dissertasion tadqiqotlarida jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini ta'minlashdagi roli oshib borayotganligi, jumladan g'arb mamlakatlarida iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 70 foizi xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotganligini ta'kidlab o'tgan [7, b. 4-5].

Garvard universiteti professori George J. Borjas fikricha, mehnat bozorida uchta asosiy istirokchi (mehnat resurslari, firmalar va davlat) mavjud bo'lib, mehnat taklifi egri chizig'i iqtisodiyotga taqdim etilgan kishi-soatlar sonini berilayotgan maosh bilan bog'laydi. Taklif qilinayotgan maosh qancha yuqori bo'lsa, taqdim etilayotgan mehnat shuncha yuqori bo'ladi, [8, b. 20]-degan fikrni ilgari suradi.

NATIJAR VA TAHLILLAR.

Hududlarda aholi bandligini ta'minlash iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va biznes rivojlanishining natijasidir. Bu yo'nalishda amalga oshiriladigan har bir tashabbus, hududiy o'sish va farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Davlat va jamoat tashkilotlari, shuningdek, xususiy sektor vakillarining o'zaro hamkorligi orqali aholi bandligi yanada samarali ta'minlashga erishish mumkin. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishda bandlik muammolarining yechimiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu masala nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush darajasini oshirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, hududiy darajada bandlikni oshirish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish zamonaviy jamiyat uchun juda muhimdir.

Respublikada har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilmogda. Shunga qaramay, hududlardagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolmogda, doimiy ish o'rinlarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta'minlash, shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalalari hal etilmayapti [9].

Biz o'z monografik tadqiqotlarimizni asosan Qashqadaryo viloyati hududlarida olib bordik. Tadqiqot natijalariga asosan, viloyatda 2024 yilning 1 yanvar holatiga 1825300 nafar mehnat resursi ro'yxatga olingan, shundan 1336159 kishi

iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. Band aholining asosiy qismi, ya'ni 25 foizi qishloq xo'jaligida, 15 foizi sanoatda va 16 foizi savdoda band (1-jadval). Ish bilan band aholining aksariyat qismi qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotganligini hisobga olib kuzatuvlarimizni ushbu yo'nalishda davom ettirdik.

Viloyatda yil davomida fuqarolarni bandligini ta'minlash dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unga asosan 2023 yilning yanvar-iyul oylarida 220,7 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. Shundan, agroklastarlarda 5 ming, fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarida 27,1 ming, dehqon xo'jaliklariga yer ajratish hisobiga 43,8 ming, takroriy ekinga yer ajratishda 21 ming, tomorqada 24,5 ming, pillachilikda 98,1 ming hamda suv va o'rmon xo'jaligida 1,3 ming nafar fuqarolarning doimiy va mavsumiy bandligi ta'minlandi. 2023 yil yakuniga qadar 44,6 mingta va qo'shimcha 118 mingta ish o'rinlari yaratildi. Bunda, dehqon xo'jaligiga yer ajratish orqali 16,7 ming, ipakchilikda 70,1 ming, uzumchilikda 13 ming, issiqxonada 4 ming, asalarichilikda 13,9 ming, chorvachilikda 282 nafar aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta'minlandi. Olib borgan keng ko'lamlı tadqiqotlarimizga asosan, hududlarda aholi bandligini ta'minlash uchun turli strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz. Birinchi navbatda, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va bu sohada texnologik modernizatsiyani amalga oshirish lozim. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati oshadi. Bunda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, fermer xo'jaliklariga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda Qashqadaryo viloyatida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi, jumladan, 779,2 mlrd. so'mlik 80 ta oziq-ovqat sanoati loyihalari ishga tushirildi va ularda 1110 ta ish o'rne yaratildi. Natijada, viloyatda qayta ishlash darajasi meva-sabzavot mahsulotlari yo'nalishida 23 foizga, sut 30 foizga va go'sht 20 foizga yetkazildi.

Ikkinchidan, xizmatlar sohasini kengaytirish, ayniqsa, turizm va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali hududlarda yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish mumkin. Turizm sohasi qishloq va shahar hududlarida ko'plab ish o'rinlarini ochish imkoniyatiga ega bo'lib, mahalliy aholining band bo'lishiga katta hissa qo'shadi. Bu borada "agroilm.akis.uz" platformasi ishga tushurilib, u orqali o'quv kurslarida onlayn tarzda fuqarolarning bilimlari oshirilib, tegishli sertifikatlar bilan taqdirlanmogda. Shuningdek, viloyat agroxizmatlar markaziga 25 ga yaqin xalqaro espertlar jalb qilinib, ular ishtirokida 10 dan ziyod turli yo'nalishlarda seminarlar tashkil etildi. Lekin joylarda "Turistik mahalla", "Turistik qishloq" yoki "Turistik ovul" maqomiga ega bo'lgan joylarni tashkil qilish va bundan keng ommani xabardor qilish ishlari to'liq yakunlangani yo'q. Tadqiqotlarimizga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 2-bobidagi talablar va shartlarning bajarilishi qishloq joylarda bu yo‘nalishdagi xizmat ko‘rsatuvchi subektlarning ko‘payishiga olib keladi

[11], lekin bu talab va shartlarni asosiy qismi shu hududda istiqomat qilayotgan fuqarolar bilan bog‘liq ekanligini hisobga olib, fuqarolarga qarorning mazmun-mohiyatini tushuntirish kelgusida bu boradagi muammolarning bartaraf etilishiga olib keladi deb hisoblaymiz.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida mehnat va bandlik ko‘rsatkichlari [10]
(2024 yilning 1 yanvar holatiga)


kishi

Mehnat resurslari soni	1825300
Iqtisodiy faol aholi soni	1336159
Ishlayotgan o‘smirlar	0
Ishlayotgan pensionerlar	17 119
Band aholi soni	1 212 816
- rasmiy sektorda	468299
- norasmiy sektorda	604066
- ishlash uchun respublika tashqarisiga chiqqanlar	140 451
shundan, rasmiy chiqqanlar	3 387
norasmiy chiqqanlar	137 064
Band aholi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:	1 212 816
- qishloq xo‘jaligida	297944
- o‘rmon xo‘jaligida	47142
- sanoatda	186625
- qurilishda	96980
- savdoda	191479
- tashish va saqlashda	87363
- ta‘limda	66755
- sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda	99721
- boshqalarda	138 807
2023 yilda yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni	474 142
- shu jumladan, kichik biznes hisobiga	6 674
xizmat servis sohasi hisobiga	164227
Ishga muxtojlar (ishsizlar)	114529
Ishsizlik darajasi (%)	8,6

Shuningdek, davlat tomonidan infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish va mahalliy tadbirkorlarga rag'batlantiruvchi imtiyozlarni yaratish hududiy iqtisodiyotni jonlantiradi. Ta'lim tizimini hududiy bozor talablariga mos ravishda o'zgartirish, yangi kasb-hunar ko'nikmalarini

o'rgatuvchi dasturlarni kengaytirish aholi bandligini oshirishga xizmat qiladi.

Biz tadqiqotlarimizning ishonchlilik darajasini yanada oshirish maqsadida ishsiz aholining ma'lumotlilik darajasi tahlilini o'rgandik (1-rasm).



1-rasm. Ishsiz aholi ko'rsatkichlari (birlikda) [12].

Tahlillarga ko'ra, 2023 yilda Qashqadaryo viloyatida 114529 nafar ishsiz aholi ro'yxatga olingan bo'lib, ma'lumotlilik darajasi oshishi bilan ularning soni keskin kamaygan. Oliy ma'lumotga ega ishsizlar soni ko'pligi bo'yicha viloyatimizdagi 2 hudud, Qarshi shahri (1100 kishi) va Chiroqchi tumani (1000 kishi) yetakchilik qilib kelmoqda. Mantiqiy tekshiruvlarimizga asoslanadigan bo'lsak, bu hududlarning birida infratuzilma ob'ektlarining ko'pligi bo'yicha ishsizlik darajasi kam, ikkinchisida esa, teskari natijaga ega bo'lishi kerak edi. Demak, hududlarda ishsizlik darajasini kamaytirishda amalga oshirayotgan islohotlarimizda bu jihatlarni hisobga olishimiz kerak bo'ladi.

Kelgusida aholi bandligini ta'minlash bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarbligicha qoladi. Innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali bandlik darajasini oshirishga erishish mumkin. Xususan, ekologik va yashil iqtisodiyotga asoslangan loyihalar orqali hududlarda yangi iqtisodiy klasterlarni shakllantirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'rganishlarimiz natijasida xulosa sifatida qayd etib o'tishimiz lozimki, hududlarda aholi bandligini ta'minlash masalasi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligi uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, hududlarda aholi bandligini ta'minlashda albatta hududning imkoniyatlari, aholi talablari va ijtimoiy omillarni ham hisobga

olish lozim. Hududlarda aholi bandligini ta'minlashda asosiy omil sifatida qishloq xo'jaligi ko'rilmogda, lekin qishloq xo'jaligiga yondosh yo'nalishlarni rivojlantirish evaziga ham bu bandlik muammosini yechish mumkin. Shu bilan birga, aholining mehnatga layoqatli qatlamini ish bilan ta'minlashda texnologik taraqqiyot, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, qishloq xo'jaligida agroturizm, ekoturizm va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bandlik bo'yicha kompleks dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillarini hisobga olib, mahalliy infratuzilmalarni rivojlantirish, kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashgan ta'lim yo'nalishlarini kengaytirish zarur.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Turobov, Sherzod Alisherovich - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti - "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD) / Туробов, Шерзод Алишерович - Каршинский инженерно-экономический институт - Доцент кафедры «Бухгалтерский учет и аудит», к.э.н.(PhD) / Turobov, Sherzod Alisherovich - Karshi engineering economics institute - Associate professor of the "Accounting and Audit" department, PhD in economics
sh.turobov@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0002-4155-6684>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2024

- yildagi "2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida"gi PQ-7-son Qarori.
- [2]. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. –T.: "Fan", 2019. -592 b.
- [3]. Xudoyberdiyev Z.Ya. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: ILM ZIYO, 2016. -344 b.
- [4]. Xolmuxamedov M.M. Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish va uni takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya. Samarqand. 2011 yil. -144 b.
- [5]. O.O.Oorjak, & Ш.Ч.Соян (2021). ПРОБЛЕМЫ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В РЕГИОНЕ. Экономика и бизнес: теория и практика, (1-2), 26-30. doi: 10.24411/2411-0450-2021-10060.
- [6]. Кабулова Д., Гайбуллаев О. Устойчивая занятость в Узбекистане: состояние, проблемы и пути их решения. ИПМИ. Ташкент. 2018. С. 26.
- [7]. Mardonov B.B. "Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirish" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya. Samarqand. 2018 yil. -148 b.
- [8]. Borjas, George J. Labor economics. Mc Graw-Hill Irwin. — 6th ed. 2013. –P. 596.
- [9]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.07.2018 yildagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3856-son Qarori.
- [10]. Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
- [11]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.07.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 433-son Qarori.
- [12]. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti.

Inson kapitali
iqtisodiyoti

Экономика
человеческого
капитала

Economics of
human capital

O'zbekistonda pensiya jamg'armasi faoliyatining nazariy asoslari

Samiyeva, Gulnoza Toxirovna

Теоретические основы деятельности пенсионных фондов в Узбекистане

Самиева, Гулноза Тохировна

Theoretical basis of the activities of pension funds in Uzbekistan

Samieva, Gulnoza Tokhirovna

Received: September 21, 2024 Revised: September 23, 2024 ■ Accepted: September 25, 2024 ■ Published Online: October 1, 2024

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining pensiya jamg'armasi faoliyatiga bog'liq ma'lumotlar va tahlillariga bag'ishlanadi. Maqolada pensiya fondi haqidagi nazariy ma'lumotlar, yetakchi olimlar fikri, bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholining ijtimoiy ta'minotini aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi bayon etilgan. Maqola pensiya jamg'armasi, ijtimoiy nafaqalar, pensiya va nafaqalar indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar tahlilini o'z ichiga olgan. Pensiya tizimi har qanday davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, har yili u orqali yalpi ichki mahsulot (YaiM)ning ma'lum bir qismi qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan kafolatlangan pensiyalar bozor iqtisodiyotiga o'tishda mamlakat aholisini kuchli ijtimoiy himoya qilish prinsipiga tayangan holda hamda milliy valutaning inflyatsiya darajasini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmonlariga asosan keyingi 10 yil mobaynida har kalendar yilda kamida ikki marta ma'lum miqdorlarda indeksatsiya qilib borilmoqda. Mamlakatimizda YalMning barqarorligi, iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning yuqori o'sish sur'atlari, davlat budjetining profitsit bilan ijro etilishi, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash tizimini moliyalashtirishga qulay sharoit yaratmoqda. Ushbu maqola shu yuqoridagi fikr va mulohazalarni aks ettiradi.

Kalit so'zlar: pensiya, nafaqa, pensiya fondi, nafaqa ta'minoti, budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi

Аннотация. Данная статья посвящена информации и анализу, связанными с деятельностью пенсионного фонда Республики Узбекистан. В статье изложены теоретические сведения о пенсионном фонде, мнение ведущих ученых, системе социальной защиты населения с четкой адресностью и назначением в период перехода к рыночным отношениям и реформирования социально-экономической системы. В статье проведен анализ таких понятий и структур, как пенсионный фонд, социальные выплаты, индексация пенсий и пособий. Пенсионная система является важной составляющей любой финансовой системы государства, и каждый год через нее перераспределяется определенная часть валового внутреннего продукта (ВВП). Пенсии, гарантированные государством, исходя из принципа сильной социальной защиты населения страны в период перехода к рыночной экономике и с учетом уровня инфляции национальной валюты, индексируются в определенных размерах не реже двух раз в календарный год за в ближайшие 10 лет на основании специальных указов Президента Республики Узбекистан.

В нашей стране стабильность ВВП, высокие темпы роста ведущих отраслей экономики, профицитное исполнение государственного бюджета создают благоприятные условия для финансирования социальной сферы и системы социальной защиты населения. Данная статья отражает приведенные выше мнения и дискуссии.

Ключевые слова: пенсия, пенсия, пенсионный фонд, пенсионное обеспечение, внебюджетный пенсионный фонд.

Annotation. This article is devoted to information and analysis related to the activities of the Pension Fund of the Republic of Uzbekistan. The article presents theoretical information about the pension fund, the opinion of leading scientists, the system of social protection of the population with clear targeting and purpose during the transition to market relations and reforming the socio-economic system. The article analyzes such concepts and structures as the pension fund, social payments, indexation of pensions and benefits. The pension system is an important component of any financial system of the state, and every year a certain part of the gross domestic product (GDP) is redistributed through it. Pensions guaranteed by the state, based on the principle of strong social protection of the country's population during the transition to a market economy and taking into account the inflation rate of the national currency, are indexed in certain amounts at least twice a calendar year for the next 10 years on the basis of special decrees of the President of the Republic of Uzbekistan. In our country, the stability of GDP, high growth rates of the leading sectors of the economy, surplus execution of the state budget create favorable conditions for financing the social sphere and the social protection system. This article reflects the above opinions and discussions.

Key words: pension, pension, pension fund, pension provision, off-budget pension fund.

KIRISH.

Yangi O'zbekistonda ro'y berayotgan islohotlar, Harakatlar va taraqqiyot strategiyalari ijtimoiy soha tizimida yangi sahifa ochdi. Bozor munosabatlari va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholining ijtimoiy ta'minotini aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi. Pensiya jam g'armasi, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar va nafaqalar indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amal qila boshladi. Alohida bir fuqaroga, fuqarolar toifalariga boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlari yaratib berish orqali ularning to'laqonli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui shakllantirildi. Pirovardida, O'zbekiston 137 davlat orasida baxtiorlik bo'yicha global reytingda 2023 yilda 54-o'rinda qayd etilgan bo'lsa, 2024 yilning 6 oyida 47-o'ringa ko'tarildi, undan keyingi pog'onalar esa Italiya (48), Rossiya (49) va Yaponiya (51) kabi davlatlar joy oldi [1]. Jahon ijtimoiy tizim amaliyotida pensiya fondlari har bir davlatning eng muhim moliyaviy institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat ko'rsatishi ijtimoiy farovonlikning darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, pensiya tizimi har qanday davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, har yili u orqali yalpi ichki mahsulotning ma'lum bir qismi qayta taqsimlanadi. Bu ko'rsatkich Italiyada 14,2 foizni, Fransiyada 13,3 foizni, Germaniyada 12,3 foizni, Shvetsiyada 11,3 foizni, AQShda 6,3 foizni, Buyuk Britaniyada 6,4 foizni, Kanadada 6 foizni, Yaponiyada 5,7 foizni va Rossiyada 6,5

foizni tashkil qiladi [2]. Shu boisdan ham so'nggi yillarda jahon mamiakatlarida davlat tomondan pensiya ta'minoti va pensiya fondlari faoliyati taraqqiyotiga, ulaming barqaror faoliyatini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

"Ijtimoiy himoya" atamasi birinchi marta 1935 yilda AQShning "Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha Qonun" deb nomlangan huquqiy hujjatida qo'llanilgan. Mazkur qonunga ko'ra, mamlakat har bir fuqarosining ishsizlik yoki daromadni yo'qotish, shuningdek, daromadlarining keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug'ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlardan mahrum bo'lishdan himoya qiluvchi chora-tadbirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e'tirof etilgan. Bu atama Yangi Zelandiyaning 1938 yili qonun hujjatida qo'llanilgan. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Xalqaro mehnat byurosi (XMB) ekspertlarining alohida nuqtai nazarlari mavjud. Ular ijtimoiy himoya masalasiga ikki tomonlama yondashadilar

Tomas Morning "Utopiya" (1516 yil) asaridan boshlab tenglik va adolat tushunchasiga davlat tuzilishi bilan bog'liq ravishda qaraladigan bo'ldi va bu ijtimoiy adolat prinsiplariga urg'u berilishiga sababchi bo'ldi [3]. Mazkur sohada eng mashhur tadqiqotchilardan biri J.Rolz taqsimlash adolatiga ta'rif berar ekan, barcha ijtimoiy ne'matlar - erkinlik va imkoniyat,

daromad, mulk, o'z qadr-qimmatini hissi teng taqsimlanishi zarur deb hisoblangan. Bunda mazkur ne'matlardan qaysidir birini yoki hammasini notekis taqsimlashga faqat hammaning manfaati yo'lida istisno tariqasida yoi qo'yilishi mumkin [4].

Keyinchalik qator olimlar T.Maltus va G.Spenserning ijtimoiy himoyaga bergan baholarini inkor etadilar [5]. Jumladan, A.Smit "Xalqlarning boyligi ikki muhim shart-sharoit, birinchidan, tegishli xalq o'z mehnatini qo'llay olishda qanchalik mohir va topqirligi, ikkinchidan, ishlab chiqarishda band bo'lganlar va mehnat qobiliyatiga ega bo'lmaganlar sonining mutanosibli bilan belgilanadi. Sivilizatsiyali xalqlarda ko'pchilik bevosita ishlab chiqarishda band bo'lmasa-da, umumdavlat farovonligi hisobidan yaxshi turmush kechiradilar" [6], – deydi. Darhaqiqat, ijtimoiy himoyagamuhoj qatlamlarning haq-huquqlarini himoyalash, ularga munosib turmush tarzini kafolatlash zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, moddiy ne'matlarning oqilona taqsimoti turli qatlamlarning mavjud ahvolidan qat'iy nazar davlat tomonidan ijtimoiy muhofazalanishiga xizmat qiladi.

Keyinchalik ijtimoiy himoya tushunchasiga yangicha yondashuvni U.Beveridj 1942 yil o'zining "Erkin jamiyatda to'laqonli bandlik" deb nomlanuvchi Angliya parlamentidagi ma'ruzasida keltirib, ijtimoiy himoyaning zamonaviy mohiyatini ochib berish bilan birga uni amalga oshirishning mas'ul subyektlaridan biri davlat ekanligini asoslab beradi [7]. Uningcha, ijtimoiy muhofaza tizimi davlat miqyosida aholining barcha qatlamlari uchun yalpi holda amalga oshirilishi shart. Ingliz hukumati U.Beveridjning taklif va tavsiyalaridan unumli foydalanib, 1944-1948 yillar mobaynida jahonda birinchilardan bo'lib yalpi ijtimoiy muhofaza tizimining qonunchilik asoslarini yaratdi.

Ijtimoiy sohada ushbu masalaga turlicha qarashlar bo'lib, eng avvalo, jamiyatda o'z qatlamlarni shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar, kambag'allik, tengsizlik va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, sosiologiya fanning asoschilaridan biri – E.Dyurkgeym (1858-1917) ning fikricha, "Zamonaviy jamiyatlarda o'zgarishlar shunchalik tez va jadal sur'atlarda ro'y bermoqdaki, natijada sezilarli ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda" [8]. Buni u anomiy hoidasi bilan izohlab, unga ko'ra, jamiyatdagi muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar oqibatida shakllangan tengsizlik individning mavjudligidan maqsad yo'qligini his etishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun muallif jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kasbiy uyushmalarni tashkil qilish taklifini ilgari suradi. Uning ishini mehnat sosiologiyasi fani vakillaridan E.Meyo (1880-1949) ham davom ettirib, nooqilona mehnat taqsimoti va boshqaruvning byurokratik usuli natijasidagi anomiy individlar o'rtasida keskin tabaqalanishga turtki bo'lishini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat,

zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan hodisalar ijtimoiy muhitni murakkablashtirib, shaxsga o'z ta'sirini o'tkazadi [9]. J.Gelbreyt adolatli jamiyat mohiyatini o'rganar ekan, uning asosida daromadlarning oqilona taqsimoti yotishini aniqlaydi [10]. Ammo, zamonaviy bozor iqtisodiyotida moddiy boylik va daromadlar taqsimoti bir tekis emasligi barchamizga ma'lum.

Bunday taqsimot har qanday jamiyat taraqqiyotiga xavf tug'diruvchi o'ta boy va qashshoq qatlamlarni shakllantiradi. Oqilona ijtimoiy himoya tizimi esa xuddi shunday keskinlikni yumshatishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi o'rta qatlam barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Ijtimoiy himoya tushunchasining mohiyatini ochib berishdagi ilk fikrlardan biri Svidenkinning "Ijtimoiy siyosat" kitobida bayon etilib, unda muallif ijtimoiy himoyani "Butun jamiyatga taalluqli bo'lgan muammolarni hal etishga doir ijtimoiy harakatlarning amalga oshirilishidir", – deb baholaydi [11].

O'zbek olimlaridan A.Vaxabov, X.Xajibakiyev, Q.Abduraxmonov va G.Abduraxmonovalar ham ushbu sohada tadqiqot olib borgan hamda o'z fikr-mulohazalarini o'z asarlarida berib o'tishgan [12,13].

■ TADVIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur muammolar tadqiqotning bir qator usullaridan foydalanish asosida o'rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalar, monografik tahlillar natijalari monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o'rganilib, ijtimoiy ta'minot masalalari tahlili keltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'nalishlarining mazmun va mohiyatini hamda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev asarlariga, Prezident farmon va qarorlariga asoslanadi. Shuningdek, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimi masalalari butun dunyoda aholi turmush darajasini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy soha iqtisodiyotida ushbu komponentlarni o'rgangan olimlar V.M.Rutgayzer, S.P.Shpilko, A.V.Simbalist, K.N.Pupynin, M.Rutkowski, V.M.Jerebin, A.N.Romanov, M.V.Perova, YE.V.Perov, V.S.Kukushina, P.Z.Xashimov, B.X.Umurzakovlar hisoblanadi. Metodologiyada ularning yondashuvlaridan foydalanildi.

■ ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat organi (O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy himoya agentligi)

ning aholini muhofaza qilish sohasidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- muhtoj oilalar, pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksa fuqarolarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tabaqalinishi va manzilligini kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish va ijtimoiy himoya mexanizmlari amal etishi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- manfaatdor vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va muassasalar bilan birgalikda pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksa fuqarolarga qonunchilik bilan belgilangan imtiyozlar, sanatoriya-kurortlarda davolanish uchun yo'llanmalar va harakatlanish maxsus vositalarini taqdim etishda ishtirok etadi;
- manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda eng muhim ijtimoiy-mehnat normalari va normativlarning ro'yxatlarini belgilaydi hamda ularni ishlab chiqishni muvofiqlashtiradi;
- Iqtisodiyot va moliya vazirligi, boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda aholining turmush darajasi va farovonligini tadqiq etadi hamda ularni oshirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;
- manfaatdor vazirliklar va idoralar, davlat hokimiyatining joylardagi organlari ishtirokida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishga muhtoj pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, aholining boshqa ijtimoiy nochor guruhlarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jam g'armasining hududiy bo'linmalari fuqarolarning pensiya ta'minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi (TME) masalalarining butun kompleksi uchun mas'ul bo'lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funksiyalar hamda tegishli tuzihnalarni topshirish hisobiga tashkil etilgan. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda, jumladan, AQShda pensiya fondlarining davlat tomonidan boshqarilishi pensiyaga chiqish davlat dasturlari ijrosiga mas'ul shaxslar bilan barcha asosiy masalalarning bazaviy va tizimli muhokama qilinishini ta'minlaydi. Ularda ham pensiya tizimining shakllanish tarixi chuqur o'rganiladi, bunda pensiya sug'urtasi va tarkibi, moliyaviy hisobotlar, pensiya jam g'armasi aktivlarini investitsion boshqarish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Pensiya jam g'armasining hozirgi kundagi tashkiliy tuzilmasi shakllanguncha bir necha marotaba tashkiliy-huquqiy o'zgarishlar amalga oshirilgan va 2010-yildan boshlab Pensiya jamg'armasi idoraviy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibiga kiritilgan. Pensiya jamg'armasi o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi

Moliya vaziriga, jamg'armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Pensiya jamg'armasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarga, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomga amal qiladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jam g'armasi bu - aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz qismini pul mablag'lari bilan ta'minlovchi mustaqil moliyaviy organ. Ushbu jamg'arma: pensiya va bolalar nafaqasini to'lash hamda ularni moliyalashtirishni amalga oshirish uchun markazlashtirilgan holda pul mablag'larini jamlash; respublika va mahalliy darajadagi strategik rejalarni, ayniqsa, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirishda faol qatnashish; o'z-o'zini moliyalashtirish prinsiplari va tijorat faoliyati asosida fond mablag'ini miqdorini oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, Pensiya jamg'armasi davlat ijtimoiy sug'urta badallari stavkalarini belgilashda, nafaqa ta'minoti va ijtimoiy rejalarni ishlab chiqish bo'yicha takliflarni tayyorlashda bevosita qatnashadi, shuningdek, sug'urta badallarining o'z vaqtida to'liq kelib tushishi va ularning to'g'ri sarflanishi ustidan nazoratni ta'minlaydi. Pensiya jamg'armasining asosiy tamoyili "avlodlar birdamligi" hisoblanadi. Chunki, inson hamma vaqt birdek kuch-g'ayratli bo'lmaydi. Mohiyatan olib qaralganda, inson yoshlik vaqtlaridan boshlab keksalikdagi farovonlikni ta'minlash maqsadida Pensiya jamg'armasi ixtiyoriga pul o'tkazib boradi va ma'lum vaqt o'tgandan so'ng o'zi jamg'argan mablag' hisobidan pensiya oladi.

Davlat tomonidan kafolatlangan pensiyalar bozor iqtisodiyotiga o'tishda mamlakat aholisini kuchli ijtimoiy himoya qilish prinsipiga tayangan holda hamda milliy valutaning inflatsiya darajasini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmonlariga asosan keyingi 10 yil mobaynida har kalendar yilda kamida ikki marta ma'lum miqdorlarda indeksatsiya qilib borilmoqda. Mamlakatimizda YalMning barqarorligi, iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning yuqori o'sish sur'atlari, davlat budjetining profitsit bilan ijro etilishi, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash tizimini moliyalashtirishga qulay sharoit yaratmoqda. Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2023 yil rivojlanish yakunlari va 2026-2030-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy o'sish prognozlarini bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgan. Bundan tashqari, 2015-yilda mamlakatimiz BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida" tan olingan.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini kafolatli himoya qilish davlatning eng muhim siyosiy va ijtimoiy -iqtisodiy vazifasi hisoblanib, har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining miqdor va sifat ko'rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining darajasidan dalolat beradi. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida "Har bir inson ... ishsiziik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra, tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega" ekanligi ko'rsatilgan. Bu huquqlar aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi tomonidan ta'minlanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi uchta asosiy shaklda

amalga oshiriladi: ijtimoiy ta'minot; ijtimoiy sug'urta; ijtimoiy yordam.

Fuqarolar ayrim toifalarini davlat budjeti hamda budjetdan tashqari maxsus fondlar mablag'lari hisobidan moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan davlatning ijtimoiy yordam ko'rsatish shakliga ijtimoiy ta'minot deyiladi. Fuqarolarga bunday yordam davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan muhim deb e'tirof etilgan hollarda ko'rsatiladi. Ana shu yordamdan aholining nochor qatamlari ahvollarini jamiyatning boshqa a'zolari bilan imkoniyat darajasida tenglashtirish maqsadi ko'zlanadi.

Ijtimoiy sug'urta - davlat tomonidan belgilab qo'yilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli, budjetdan tashqari ijtimoiy sug'urta fondlari, shuningdek, boshqa jamoaviy va xususiy sug'urta fondlari mablag'lari

1-jadval

Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning O'zbekistonning ayrim hududlari bo'yicha soni

HUDUDLAR	2010		2015		2020		2023	
	MING KISHI	10000 AHOLIGA	MING KISHI	10000 AHOLIGA	MING KISHI	10000 AHOLIGA	MING KISHI	10000 AHOLIGA
O'zbekiston Respublikasi	3265,8	1121	3203,9	1015	4029,3	1184	4827,3	1311,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	191,9	1142	178,1	994	219,4	1152	346,2	1315,7
Qashqadaryo	269,5	990	269,7	891	357,4	1085	485,7	1259
Samarqand	340,3	1040	331	924	429,5	1103	563,6	1243,4
Toshkent sh.	319,2	1390	329,2	1376	369,7	1430	438,5	1395,7

hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy ta'minlash, qo'llab-quvvatlash tizimi. Davlat ijtimoiy yordami mehnatga layoqatsizligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud boim aganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam hisoblanadi. Bu yordam turining hajmi shaxs daromadi yoki aholining umumiy turmush darajasi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy yordam doirasidagi nafaqa va yordam pullari faqat amaldagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan aholi toifalariga beriladi. Mazkur himoya institutining asosiy jihati - bu aholining kam ta'minlangan guruhlari (bolalikdan nogiron, katta yoshda nogironligi bo'lgan shaxslar, pensiya olish uchun zarur sug'urta maqomiga ega bo'lmagan fuqarolarga) davlatning ijtimoiy-shartnomasiz yordam ko'rsatishi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand subyektlariga quyidagilar kiradi:

1. Pensionerlar, aholining bu guruhi pul ta'minoti huquqiga ega fuqarolar bo'lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Muayyan yoshga yetgan fuqarolar pensiyaga chiqish huquqiga egalar. Nogironlikning tegishli guruhi belgilangan shaxslar, oila boquvchisining qaramog'idagi mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari, shuningdek, boquvchisidan ajralgan bolalar (16 yoshgacha bo'lgan bolalar) parvarishi bilan mashg'ul shaxslar, uzoq vaqt muayyan kasbiy faoliyatni bajarib kelgan xodimlarning ayrim toifasi, ichki ishlar idoralarida harbiy xizmatni o'taganlar, ularning oila a'zolari ham aholining pensiya ta'minoti huquqiga ega toifasiga kiradi. Shu bilan birga, aholining bu toifasiga korxonalar, muassasa, tashkilotda ishlayotgan pensiya

oluvchi fuqarolar ham kiradi. Ishlayotgan pensionerlarga yoshga doir pensiyalar 50,0 foiz miqdorida naqd shaklda to'lanadi;

2. Nogironligi bo'lgan, aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, yashash faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar kiradi. Bu toifadagi shaxslar hayot faoliyatini cheklashga olib kelgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qilib qo'ygan jarohat yoki nuqsonlar, kasalliklar bo'yicha aniqlanadi. Organizm funksiyasining buzilish darajasiga bog'liq holda va hayot faoliyati cheklanganligiga ko'ra birinchi va ikkinchi guruh nogironligi belgilanadi. Nogironligi bo'lgan bolalar jismoniy yoki aqliy, sezgi nuqsonlari borligi tufayli hayot faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan shaxslardir. 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy maslahat komissiya (TMK) lari tomonidan, 16 yoshdan 18 yoshgacha esa - tibbiy-mehnat ekspert komissiya (TMEK) lari tomonidan beigilangan tartibda amalga oshiriladi;

3. Kam ta'minlangan oilalar, ular daromadlari tirikchilik uchun eng kam miqdordan yuqori bo'lmagan oilalardir. Kam ta'minlanganlik chegarasi mutaxassislar tomonidan me'yoriy iste'mol savatchasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi vaqtda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tiizimga o'tilishi munosabati bilan bu chegarani belgilash ancha murakkab masala hisoblanadi. Kam ta'minlangan oilalarga ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan, nafaqa oluvchi oilalar kiradi;

4. Ishsizlar, aholining bu toifasiga ishsiz va daromad topish manbai bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bu toifadagi fuqarolar aholining ish bilan bandligi xizmatida ishsiz sifatida beigilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari talab qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minoti tizimida umumqabul qilingan pensiya sug'urtasi tamoyillarini kiritilishiga bog'liq bo'lgan modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilgan. Oxirgi yillarda sug'urta badallari ushlanadigan yagona ish haqi bazasi shakllantirilgan, pensiyani hisoblab chiqarish uchun hisobga olinadigan ish haqini zamonaviylashtirish, ya'ni ilgari olingan oylik ish haqilarini bugungi kundagi miqdorlarini aniqlash mexanizmi joriy etilgan, hisoblangan sug'urta badallarini yakka tartibdagi hisobini yuritish tizimi amaliyotga tatbiq etilgan pensiya tizimining moliyaviy muvozanati quyidagi asosiy 4 ta omilga bog'liq:

- demografik holat;
- iqtisodiy ahvol;
- ijtimoiy va mehnat munosabatlari

- pensiya sug'urtasining moliyaviy boshqaruv usullari va mexanizmlari.

Ushbu omillar doimiy ravishda o'zgarib turadi, bu esa pensiya tizimi budjetining moliyaviy balansiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot o'sishi sur'atlarining pasayishi pensiya jamg'armasiga investisiyalar rentabelligining pasayishiga, pensionerlar sonining ortishi sug'urta yukining ko'payishiga, ishsizlarning ulushi va ishsizlikning yashirin shakllarining o'sishi esa sug'urta mukofotlari hajmining pasayishiga olib kelishi mumkin Mazkur omillarning ahamiyati va pensiya sug'urtasi tizimidagi turli holatlarning yuzaga kelishi, ushbu o'zgaruvchilarning hisob-kitoblarini talab qiladi, bu esa ma'lum bir guruh omillarning pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga bo'lgan ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning muhim sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligidir. Ushbu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda alohida ahamiyat kasb etadi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etish natijasida ayrim mamlakatlarda uzoq muddatli istiqbolda pensiya tizimi barqarorligini yaxshilashga yo'naltirilgan qator muhim qadamlar qo'yildi.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida aholining jadal ravishda keksayib borishi iqtisodiyotga moliyaviy bosimining kuchayishiga olib keldi. Shu sababdan jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini hisobga oluvchi pensiya ta'minotining optimal modelini shakllantirish ko'pchilik mamlakatlarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda pensiya yoshini oshirish, pensiya imtiyozlarini qisman bekor qilishi, kelajakda pensiyani to'lashga mo'ljallangan mablag'larni investitsiyalash elementlarini kirituvchi pensiya islohotlari amalga oshirilmoqda.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Samiyeva Gulnoza Toxirovna – QarMII Innovatsion iqtisodiyot kafedrasida dotsenti / Самиева Гулноза Тохировна – доцент кафедры “Инновационная экономика” КРИЭИ / Samiyeva Gulnoza Tokhirovna – PhD, Associate Professor, Karshi Engineering and Economic Institute

► samiyevagulnoza@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-3192-3887>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Helliwell, J. F., Layard, R., Sachs, J. D., De Neve, J.-E., Aknin, L. B., & Wang, S. (Eds.). (2024). World Happiness Report 2024. University of Oxford: Wellbeing Research Centre
- [2] G.Abduraxmonova. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti.

- T.: "Fan va texnologiya", 2018.
- [3] Tomas Mor (Sir Thomas More, 1478-1535) Utopiya. 1516
- [4] Jon Rolz (John Bordley Rawls, 1921-2002) "Adolat nazariyasi" (" A Theory of Justice 1971), "Siyosiy liberalizm" ("Political Liberalism"; 1993), "Xalqlar qonuni" ("The Law of Peoples 1999).
- [5] Мальтус «Очерк о законе народонаселения», 1798
- [6] Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народа / Классика экономической мысли. – М.: ЭКСМО-ПРЕСС, 2000. – 77 с.
- [7] William Henry Beveridge. "Social Insurance and Allied Services" 1944.
- [8] Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1990. – 40 с.
- [9] Ли Е. Совершенствование системы социального обеспечения в России в период перехода к рыночной экономике: Автореф. дис. ...канд. соц. наук. – М.: 1997.
- [10] Mayo Ye. The social problems of industrial civilization. – London, 1945. – R. 59.
- [11] Курбатов В. Современная Западная социология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. – 283 с.
- [12] A.Vahabov, X.Xajibakiyev va b. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi. T.: "Iqtisod-moliya", 2018, 400 bet
- [13] Q.Abduraxmanov, G.Abduraxmonova. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti. T.: "Fan va texnologiya", 2018, 312 bet.

Ekonometrika va
statistika

Эконометрика и
статистика

Econometrics and
statistics

Qashqadaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirish hajmini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va ular asosida modellashtirish

Xujakulova, Nigora Rustamovna

Факторы, влияющие на увеличение объемов выращивания лекарственных растений в Кашкадарьинской области и моделирование на их базе

Хужакулова, Нигора Рустамовна

Factors affecting increasing the volume of medicinal plant cultivation in Kashkadarya region and modeling on their base

Khujakulova, Nigora Rustamovna

Received: September 14, 2024 Revised: September 19, 2024 ■ Accepted: September 22, 2024 ■ Published Online: October 1, 2024

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirish holati va samaradorligini oshirishda unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan hamda tahlil qilingan. Shuningdek, samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar asosida modellashtirish orqali samarorlik darajasi aniqlandi. Ko'rsatkichlar va tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Dorivor o'simliklar, samaradorlik, empirik model, ekonometrik model, baholash mezonlari.

Аннотация. В данной статье изучены и проанализированы факторы, влияющие на состояние и эффективность выращивания лекарственных растений в Кашкадарьинской области. Также уровень эффективности определялся путем моделирования на основе факторов, влияющих на эффективность. На основе показателей и анализа были разработаны выводы и предложения.

Ключевые слова. Лекарственные растения, эффективность, эмпирическая модель, эконометрическая модель, критерии оценки.

Abstract. In this article, factors affecting the state and effectiveness of medicinal plants cultivation in Kashkadarya region are studied and analyzed. Also, the level of efficiency was determined by modeling based on factors affecting efficiency. Based on the indicators and analysis, conclusions and proposals were developed.

Keywords. Medicinal plants, efficiency, empirical model, econometric model, evaluation criteria.

KIRISH.

Bugungi kunda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, butun dunyoda insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko'rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi dorivor o'simliklarga bo'lgan talabning keskin ortishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston tabiiy va geografik jihatdan dorivor o'simliklarga boy hudud hisoblanib, respublikada tabiiy holda mavjud 4500 turga yaqin yuksak o'simliklarning 1200 ga yaqini dorivorlik xususiyatiga ega. Mamlakatimizda so'nggi yillarda dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

O'tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o'simliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono't, qalampir yalpiz, qizilmiya, za'faron va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Ularning faoliyati natijasida o'tgan 2023-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi dorivor o'simliklar xom ashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilindi.

Bugun sohaga e'tiborning ortishi hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida respublikada 100 dan ortiq turdagi dorivor o'simliklarga rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ushbu dorivor o'simliklarning asosiy qismi tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi. Ushbu tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklarning xomashyo zahirasi chegaralangan bo'lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini o'rganish, xomashyo zahirasidan to'g'ri foydalanish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Hozirgi zamon sog'liqni saqlash tizimida barcha dori-darmonlar yovvoyi tarzda o'sadigan va madaniy yetishtiriladigan dorivor o'simliklar xom ashyosidan tayyorlanadi. Rivojlangan davlatlarda madaniy dorivor o'simliklar hissasi ichki bozorda ishlab chiqariladigan va tayyorlanadigan dori-darmonlarning 60-70 % iga to'g'ri keladi. Bu holat dorivor o'simliklarni madaniylashtirish xamda sifatli xom ashyo olinishini kafolatlashi, uni ishlab chiqarishning asosiy bosqichlarini, yig'ib olishdan so'nggi ishlov berish va quritishni texnologik nazorat qilish imkoniyati, ishlab chiqarishni talab etiladigan

darajasiga mos maydonlarni joylashtirish, katta mahsuldorlik va turlarni ekologik himoyalanganligi kabilar bilan izohlanadi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Markaziy Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududida uchraydigan shifobaxsh o'simliklar haqida o'sha davrning botanik va geograf olimlari A.Leman, A.P.Fedchenko, O.A.Fedchenko [1], A.E.Rechel, V.L.Komarov, S.I.Korjinskiy [2], V.I.Lipskiy [3], B.A.Fedchenko va boshqalar tadqiqot ishlari olib borishgan. Rossiya Federatsiyasining bir qator oblastlari misolida yovvoyi dorivor o'simliklarning xususiyati Z.V.Kasyanov, I.V.Korotkov [4], G.I.Oleshko, A.Yu.Turisev, A.A.Ustinova tomonidan o'rganib chiqilgan. Dorivor o'simliklarga antropogen ta'sir muammosining hozirgi holati A.P.Arzamashev [5], S.A.Listov va boshqalar ishlarida ko'rib chiqilgan.

Shalfeyning efir moyi tarkibi va holatiga turli xil qo'shimchalarning ta'siri, mahsuldorlikni oshirish yo'llari va usullari N.V.Kasyanova, V.I.Kondratev, G.A.Kostin, T.P.Shuvaevaning ilmiy ishlarida yoritilgan. Muhim shifobaxsh giyoh sifatida amur baxmali o'simligi G.V.Gukov [6] tomonidan tadqiq qilingan.

Kuban va boshqa mintaqalarda efir moyli ekinlar va muskat shalfeyi yetishtirish bo'yicha G.F.Golovinov, G.B.Gukov [7], G.K.Gunko, S.A.Kuznetsov, P.G.Xabratlar, Qrimda ana shu o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi bo'yicha N.S.Babanov, L.S.Memisheva tadqiqotlar olib borishgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirish holati va dinamikasi o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR.

Bizga ma'lumki, har bir tarmoq yoki soha rivojlanishida n ta ekzogen, ya'ni ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'ladi. Ammo biz bu ekzogen omillarni eng muhim, ya'ni ta'sir kuchi yuqori bo'lganlarini tanlab olishimiz zarur. Yana shuni aytishimiz lozimki, dorivor va ziravor o'simliklarning yetishtirilgan hajmi endogen, ya'ni natijaviy omil sifatida qarashimiz bilan bir qatorda bu soha boshqa sohaning rivojlanishi uchun ekzogen vazifasini ham bajaradi. Sababi, har bir soha boshqa sohaning rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi.

Biz tadqiqotimizda ko'pgina omillar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib chiqdik va quyidagi omillarni tanlab oldik:

Qashqadaryo viloyatida barcha maydonlarda dorivor o'simliklarni yetishtirilgan miqdori (tonnada)-Y;

Qashqadaryo viloyatida barcha maydonlarda dorivor o'simliklarni yetishtiriladigan maydoni (gektarda)-Y₁;

Qashqadaryo viloyatida yetishtiriladigan asal mahsuloti (tonnada)-Y₂;

Qashqadaryo viloyatida aholiga savdo va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (milliard so'mda)-X₁;

Qashqadaryo viloyatida aholiga sog'liqni saqlash xizmatlar

ko'rsatish (milliard so'mda)-X₂;

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan ambulator-poliklinikalar soni-X₃;

Qashqadaryo viloyati o'rmon fondi yerlarida dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklar yetishtirilishi (gektarda)-X₄;

Bu omillar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish va ularning tuzilish shakllarini ifodalash uchun 2011-2022 yillik statistik ma'lumotlardan foydalandik. (1-jadval).

Shuni aytishimiz lozimki, bu erda 3 ta endogen va 4 ta ekzogen omillarga ajratib oldik, bularni tahlil jarayonida batafsil yoritamiz.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirish hajmini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning 2011-2022 yillik statistik ma'lumoti [17]

YILLAR	QASHQADARYO VILOYATIDA BARCHA MAYDONLARDA DORIVOR O'SIMLIKLARNI YETISHTIRILISHI (TONNA)	QASHQADARYO VILOYATIDA BARCHA MAYDONLARDA DORIVOR O'SIMLIKLARNI ETISHTIRILISHI (GEKTAR)	QASHQADARYO VILOYATIDA YETISHTIRILADIGAN ASAL MAHSULOTI (TONNA)	QASHQADARYO VILOYATIDA AHOLIGA SAVDO VA OVQATLANISH BO'YICHA XIZMATLAR (MLRD. SO'MDA)	QASHQADARYO VILOYATIDA AHOLIGA SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLAR KO'RSATISH (MLRD. SO'MDA)	QASHQADARYO VILOYATIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN AMBULATOR-POLIKLINIKALAR SONI	QASHQADARYO VILOYATI O'RMON FONDI YERLARIDA DORIVOR VA OZIQ-OVQATBOP O'SIMLIKLAR YETISHTIRILISHI (GEKTAR)
	Y	Y1	Y2	X1	X2	X3	X4
2011	611.9	3896.7	152	223.7	16.4	416	193
2012	650	4289.5	253	323.2	13.1	436	250
2013	698.7	4725.8	316	439.6	14.8	455	295
2014	759.6	5023.9	631	592.6	26.8	456	356
2015	795.02	5429.5	796	778.4	28.2	432	401
2016	807.5	5948.2	916	901.3	39.5	442	489
2017	849.03	6263	1032	1139.6	45.8	508	514
2018	887.25	6838.8	1050	1285.3	54.4	391	581
2019	903.7	7142.3	1144	1573.3	75.0	426	656
2020	998.9	7660	1220	1889.1	86.4	525	885
2021	1067.2	7995	1239	2225.5	105.4	504	940
2022	1211.21	8156	1303	2729.7	127.5	524	1013

MS Excel dasturidagi jadvalni import qilamiz va EViews9 dasturi yordamida ko'p omilli regressiya tenglamalarini tuzamiz. EViews9 dasturi ko'p omilli empirik modellarni qurib va ularni baholash mezonlarini ahamiyatligini aniqlashda yuqori imkoniyatni beradi.

Ko'p omilli empirik modelni tuzishning asosiy qoidalaridan biri modelga tanlanib olinadigan omillar o'rtasida bog'lanish

zichliklarini aniqlash, ya'ni tanlab olinayotgan omillar o'rtasida bog'lanish multikollinearlik muammosini tekshirish hisoblanadi. Buning uchun omillar o'rtasida korrelyasiya koeffitsientlari hisoblanadi, va o'zgaruvchilar qiymatlarni qabul qilishda, x va y o'rtasida chiziqli bog'liqlikni ko'rsatuvchi eng ko'p tarqalgan ko'rsatkich bo'lib, korrelyasiya koeffitsienti hisoblanadi, u quyidagicha hisoblanadi:

$$r_{xy} = \frac{Cov(x, y)}{\sqrt{Var(x)}\sqrt{Var(y)}} \tag{1}$$

(1) tenglamaning suratida turgan qiymat quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:

$$Cov(x, y) = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y}) \tag{2}$$

va o'zgaruvchilarning kovariatsiyasi deyiladi va quyidagicha topiladi:

$$Cov(x, x) = Var(x), Cov(y, y) = Var(y). \tag{3}$$

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi Qashqadaryo viloyatida barcha maydonlarda dorivor o'simlik mahsulotlarini yetishtirishni (tonnada) rivojlantirishdir. Bu sohaning rivojlanishi uchun Qashqadaryo viloyatida aholiga sog'liqni saqlash xizmatlar ko'rsatish hajmini 1 foizga oshirilsa, viloyatda dorivor va ziravor o'simlik mahsulotlarini yetishtirish miqdori 0,12 foizga oshishga; Qashqadaryo viloyatida faoliyat

yuritayotgan ambulator-poliklinikalar soni 1 foizga oshirilsa, viloyatda dorivor o'simlik mahsulotlarini yetishtirish miqdori 0,03 foizga oshishga; Qashqadaryo viloyati o'rmon fondi yerlarida dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklar yetishtirish maydoni 1 foizga oshirilsa, viloyatda dorivor o'simlik mahsulotlarini yetishtirish miqdori 0,23 foizga oshishga olib kelishi aniqlandi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida aholiga savdo va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi va viloyatda barcha maydonlarda dorivor o'simliklarning yetishtirilgan miqdori orasidagi regression modelning elastiklik koeffitsienti [17]

METOD: ENG KICHIK KVADRATLAR USULI				
O'ZGARUVCHI	MODEL	STANDART XATOLAR	T-STYUDENT MEZONI	P-QIYMATI
Y	4.504076	0.187278	24.05027	0.0000
C	-2668.374	162.8587	-16.38459	0.0000
R-determinatsiya koeffitsienti	0.983005	Bog'liq o'zgaruvchining o'rtacha qiymati		1175.108
Tekislangan R-determinatsiya koeffitsienti	0.981306	Bog'liq o'zgaruvchining standart chetlanishi		794.6059
Regressiyaning standart xatosi	108.6441	Akaykening axborot modeli		12.36504
Qoldiqlar kvadratlari yig'indisi	118035.3	Shvarsning axborot modeli		12.44586
Maksimal o'xshashlik funksiyasining qiymati	-72.19026	Hannan-Quinn criter.		12.33512
F-Fisher mezon	578.4157	DW-Darbin-Uotson mezon		1.009740
Prob(F-Fisher mezon)	0.000000			

Tadqiqot natijasiga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida aholiga savdo va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (milliard so'mda, yuqorida X_1 -ekzogen omil sifatida olingan) hajmining oshishiga viloyatda barcha maydonlarda dorivor o'simliklarni yetishtirilgan miqdori (Y) ta'siri yuqori ekanligi aniqlandi. Buni 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Qashqadaryo viloyatida yetishtiriladigan asal mahsuloti miqdorining 2023-2027 yillardagi prognozi Qashqadaryo viloyatida barcha maydonlarda dorivor o'simliklarni yetishtirilgan maydonga bog'liq modeli asosida amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda Qashqadaryo viloyatida aholiga savdo va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2023-2027 yillardagi prognozi Qashqadaryo viloyatida barcha maydonlarda dorivor o'simliklarning yetishtirilgan mahsulot miqdoriga bog'liq modeli asosida amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyatida barcha maydonlarda dorivor o'simliklarni yetishtirilgan mahsulot miqdori (2021 yildagi narxlar asosida) 2022 yilga nisbatan 2023 yilga borib 1,019 barobarga, 2027 yilga borib esa 1,397 barobarga oshishi; prognoz qilindi. Viloyatda barcha maydonlarda dorivor o'simliklarning yetishtirilishi 2022 yilga nisbatan 2023 yilga borib, 1,072 barobarga oshishi; 2027 yilga borib esa, 1,321 barobarga oshishi; viloyatida yetishtiriladigan asal mahsuloti miqdori 2022 yilga nisbatan 2023 yilga borib, 1,185; 2027 yilga borib esa 1,603 barobarga oshishi prognoz qilindi. Viloyatda aholiga savdo va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2022 yilga nisbatan 2023 yilga borib, 1,059; 2027 yilga borib esa 1,814 barobarga oshishi prognoz qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Bir so'z bilan aytganda dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash samaradorligini ifodalovchi ayrim ko'rsatkichlar va ularning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinib, bir qancha xulosalarga kelindi va ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dorivor o'simlik xom ashyosini yetishtirishni davlat tomonidan tartibga solish har bir bosqichda xom ashyo sifatiga qo'yiladigan talablarni amalga oshirishni tartibga solib, ushbu xom ashyoni ishlab chiqarish jarayoni ustidan doimiy nazoratni o'z ichiga oladi.

Dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va sotish tizimining davlat tomonidan tartibga solinishi uni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tegishli davlat tashkilotlari maxsus dasturlarni ham ishlab chiqishni rejalashtirishlari kerak. Fikrimizcha, bunday yondashuv, dorivor o'simliklarni yetishtirishni ko'paytirish va xarajatlarini qisqartirish, tayyor dori-darmon mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va aholining dorivor o'simliklar dori-darmoniga bo'lgan

ehtiyojini ta'minlashni oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Izlanishlar jarayonida dorivor va ziravor o'simliklar yetishtirishni rivojlantirish dinamikasini inobatga olgan holda dorivor o'simliklarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi 2023-2027 yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlar asoslangan. Natijada Qashqadaryo viloyatida 2027 yilda dorivor va ziravor o'simliklar ekin maydoni 1,321, mahsulot hajmi 1,397 va yetishtirilgan asal mahsuloti miqdori 1,603 barobarga oshishi prognoz qilindi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xujakulova, Nigora Rustamovna - Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrası dotsenti / Хужакулова, Нигора Рустамовна - Каршинский инженерно-экономический институт, доцент кафедры Инновационной экономики / Khujakulova, Nigora Rustamovna - Karshi Engineering and Economic Institute, associate professor of the Department of Innovative Economics

► nigorakhujakulova86@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0001-2936-1972>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Федченко О.А., Федченко Б.А. Перечень растений дикорастущих в русском Туркестане // Санкт-Петербург и Юрьев. – 1906. – Т. 1916. – С. 1-6.;
- [2]. Коржинский С.И. Очерки растительности Туркестана // Зап. Акад. Наук. – 1896. – Т. 8. – №. 4. – С. 38.;
- [3]. Липский В.И. Флора Средней Азии т.е. Русского Туркестана и ханств Бухары и Хивы Прибавления. – Directmedia, 2014.,
- [4]. Федченко Б.А. Растительность Туркестана: Иллюстрированное пособие для определения растений, дикорастущих в Туркестанском крае и Киргизских степях. Петроград: тип. К.Маттисена. – 2015 – 824 с.
- [5]. Ахмедов Р.Б. и др. Молекулярно-генетический анализ межвидовых гибридов лисохвоста лугового (*Alopesurus platensis* L.) X лисохвоста вздутого (*Alopesurus ventricorus* Pers.) // Редакционная коллегия. – 2014. – Т. 18. – С. 34.;
- [6]. Корсун В.Ф. и др. Лекарственные растения при герпетической инфекции. – 2018.
- [7]. Гуков Г.В. Лесоведение на Дальнем Востоке. – Владивосток: Дальнаука, 2014. – 423.
- [8]. Гунько Г.К., Головинов Г.Ф. Возделывание эфирномасличных культур на Кубани // Краснодар: Главпарфюмер. – 1948.;
- [9]. Кузнецов С.А., Кольцов Н.И. Определение гидрофильно-липофильного баланса ПАВ на основе растительных масел и полиэтиленгликолей //

- Вестник чувашского университета. – 2006. – №. 2. – С. 30-33;
- [10]. Хабрат П. Г. К вопросу сепарации мелкого вороха и зерна на клавишных соломотрясах // Сборник работ по механизации и электрификации сельскохозяйственного производства. – 1967. – С. 165-172;
- [11]. Бабанов Н. С., Мемишева Л. С. Изучение селекционных образцов шалфея мускатного (*salvia sciarea* L.) как исходного материала для создания нового сорта //Тенденции развития науки и образования. – 2016. – №. 17-2. – С. 5-8.
- [12]. Yormatova D. O'simlikshunoslik // O'zbekiston qishloq xo'jaligi – 1996 – №5 – В. 9-11.
- [13]. Berkinov B.B., Axmedov U.Q. Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talablarining tahlili // Iqtisod va moliya– 2021 yil – 1-son – В. 14-22 // <http://www.biznes-daily.uz/uz/birja-expert/24951-aholini-oziq-ovqat-mahsulotlariga-bolgan-istemol-talablarining-tahlili> (www.biznes-daily.uz)
- [14]. Ataniyazov J.X. O'zbekistonda integratsiyalashgan tuzilmalarni shakllantirishning istiqbolli yo'nalishlari // Xalqaro moliya va hisob – TMI – 2018 – № 1 – В. 9.
- [15]. Azlarova D.A. «Innovatsion menejment strategiyalarini amalga oshirish tajribasi» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqola va tezislar to'plami (2018 yil 9 oktyabr). – T.: TDAU, 2018. – В. 472, 283-287.
- [16]. Глотко А.В. Инновационно-кластерная развития АПК. Материалы меж регион. научно-практ. конференции с международным участием «Проблемы и перспективы государственно-правового, экономического и социального развития субъектов Российской Федерации» 3-4 октябрь 2008 г. – Горно-Алтайский, РИО ГАГ, 2008. – С. 104.
- [17]. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Xizmatlar sohasi

Сфера услуг

Service sector

Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

Ochilov, Akram Odilovich, Xudoyorov, Azizbek Avaz o'g'li

Роль сферы услуг в экономике страны и ее социально-экономических основ

Очиллов, Акрам Одилевич, Худаяров, Азизбек Аваз Угли

The role of the service field in the country's economy and its socio-economic basics

Ochilov, Akram Odilovich, Khudayarov, Azizbek Avaz Ugli

Received: September 14, 2024 Revised: September 16, 2024

■ Accepted: September 20, 2024 ■ Published Online: October 1, 2024

Annotatsiya: Dunyo hamjamiyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish yo'li bilan aholi bandligini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab quvvatlash orqali aholi turmush darajasini yuksaltirish istiqbollari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xizmat kategoriyasining vujudga kelishi, iqtisodiy tizimda aholining turli xil iqtisodiy manfaatlarining paydo bo'lishi xizmatlar sohasining alohida katta tizim sifatida faoliyat ko'rsatishini taqozo etadi. Bunday iqtisodiy tizimning faoliyati esa, uni amalga oshiruvchi korxonalarining vujudga kelishini ta'minlaydi. Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur maqolada ushbu holatlar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: aholiga xizmat ko'rsatish, xizmat, xizmatlar sohasi, korxonalar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, moliyaviy xizmatlar, soliq, risk, preferensiya, transport xizmatlari, intensiv xizmat, aholi bandligi.

Аннотация: В мировом сообществе особое внимание уделяется перспективам повышения занятости населения за счёт развития сферы услуг, а также перспективам повышения уровня жизни населения за счёт поддержки сферы услуг. Появление категории услуг, появление различных экономических интересов населения в экономической системе требует, чтобы сфера услуг функционировала как отдельная большая система. Функционирование такой экономической системы обеспечивает создание предприятий, ее реализующих. Роль сферы услуг в экономике страны и ее социально-экономические основы имеют свои особенности, и в данной статье будут освещены эти случаи.

Ключевые слова: услуги населению, сервис, сфера услуг, предприятие, финансовая поддержка, финансовке услуги, налог, риск, предпочтения, транспортные услуги, интенсивная служба, занятость в государственном секторе.

Abstract: The world community pays special attention to the prospects for increasing employment through the develop-

ment of the service sector, as well as the prospects for increasing the standart of living of the population through support for the service sector. The emergence of the category of services, the emergence of various economic interests of the population in the economic system requires that the service sector function as a separate large system. The operation of such an economic system ensures the creation of enterprises that implement it. The role of the service sector in the economy of the country and its socio-economic foundations have their own characteristics, and this article will highlight these cases.

Key words: public services, service, service sector, enterprise, financial support, financial services, tax, risk, preference, transport services, intensive service, public employment.

KIRISH

Hozirgi paytda xizmat turlariga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunning eng muhim muammolaridan biri sanaladi. Bozor qonuniyati talablaridan biri xizmat turlarining sonini oshirish orqali xizmatlar orasidagi sog'lom raqobat muhitini yaratish va kelajakda xizmatlar tarmog'ini rivojlantirish strategiyalarini belgilashga e'tiborini qaratadi. Ayniqsa, mamlakatlarda iqtisodiyot jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda yangi xizmatlar turini yaratishga talab ortib xizmat tizimini isloh etishga e'tibor qaratildi.

“Xizmat ko'rsatish tushunchasi va tizimining mohiyatini ochib berish, uning boshqa tarmoqlardan o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish, bu turdagi korxonalarda iqtisodiy faoliyatning jihatlari, shuningdek, bu turdagi faoliyat ko'rsatuvchilarning korxonalar sifatidagi iqtisodiyotdagi rolini aniqlab berish, xizmat ko'rsatish korxonalarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini hamda ularning ilmiy asoslarini yoritib berish ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasi, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ularni qo'llab-quvvatlashning ayrim yo'nalishlari hamda nazariy asoslarini yoritib berish o'z mohiyatiga ega deb hisoblanadi”[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmat ko'rsatish sohasi, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ularni qo'llab-quvvatlashning ayrim yo'nalishlari hamda nazariy masalalari ilmiy-tadqiqotlarning obyekt sifatida keng o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, F.Kotler, T.Xilla, M.Katels, N.Barinov, I.Kulisher, G.Linkova, S.Yegorova, D.Maloletko, A.Dishlevskiy, shuningdek, mahalliy olimlardan I.Tuxliyev, I.Ochilov, G.Mustafoev, M.Q.Pardayev, Q.J.Mirzayev, B.H.Qo'ziboyev, B.Ismailovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi o'zni

hamda ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatining ayrim masalalari o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xizmat ko'rsatish korxonalarining mohiyati va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rniga oid ilmiy tadqiqotlarning keng qo'llaniladigan umumiy va individual usullaridan foydalaniladi. Bunda dialektik, sintez va analiz, abstraksiya, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, mantiqiy yondoshuv, deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish korxonalarining xususiyatlarini anglash uchun ham xizmat ko'rsatish tushunchasining mohiyatini aniqlashimiz lozim bo'ladi. Ayrim manbalarga ko'ra, xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan kategoriyadir (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlariga e'tibor beradigan bo'lsak, xizmat kategoriyasiga turlicha, masalan, uni bajaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi bevosita o'zaro aloqalarning natijasi (B.Ismoilov), bu mahsulotning foydali harakati yoki insonning o'ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo'ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan mehnat natijalari bo'yicha paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar (N.Barinov), bu ma'lum tomon tarafidan yo'naltirilgan o'z qiymatiga ega bo'lgan nomoddiy ko'rinishdagi harakat yoki, mehnat mahsuli (G.Mustafoev), bu ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir (I.Tuxliyev) kabi yondoshuvlarni ko'rishimiz mumkin.

Fikrimizcha, xizmat kategoriyasi va u bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat hisoblangan xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini yoritishda nazariy ahamiyatga ega bo'ladi. Buni kengroq yoritish maqsadida quyidagi keltirilayotgan jadvaldan foydalanamiz.

1-jadval.

Iqtisodchi olimlarning xizmat terminiga oid nazariy ilmiy asoslari [2]

IQTISODCHI OLIMLAR	ILMIY YONDASHUVLAR
I.Ochilov	“Xizmat deyilganda, insonning, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma‘lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ong‘li faoliyati tushuniladi.
I.Tuxliyev	Xizmatlar - bu ko‘zga ko‘rinmas tovarning o‘ziga xos turidir.
T. Xilla	Xizmat - qandaydir iqtisodiy birlikka tegishli bo‘lgan shaxs yoki tovar holatining boshqa iqtisodiy birlik tomonidan oldindan birinchi birlikning roziligi bilan sodir etiladigan faoliyati natijasidagi o‘zgarishidir.
F.Kotler	Xizmat - bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyatdir. Xizmatlarni ko‘rsatish moddiy ko‘rinishdagi tovar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin yoki aksincha bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin.
G. Mustafoyev	Xizmat - bu ma‘lum tomon tarafidan yo‘naltirilgan o‘z qiymatiga ega bo‘lgan nomoddiy ko‘rinishdagi harakat yoki, mehnat mahsuli tushuniladi.
N.Barinov	Xizmat - bu mahsulotning (narsaning) foydali harakati yoki insonning o‘ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo‘ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan mehnat natijalari bo‘yicha paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlardir.
F.Kotler	Xizmat - bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyatdir. Xizmatlarni ko‘rsatish moddiy ko‘rinishdagi tovar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin yoki aksincha bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin”[2]

2-jadvalda keltirib o‘tilganidek, xizmat ko‘rsatish korxonalarining vujudga kelishining asoslari sifatida avvalo iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tizim shaklida mavjud bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarish sohasidagi tovarlar ishlab chiqarilishning iqtisodiy-texnologik xususiyatlari va bu tizimning bir maromda ketishi uchun ma‘lum bir qo‘shimcha faoliyatga ehtiyoj tug‘iladiki, bunday

ehtiyojlarni ishlab chiqarish va ko‘rsatish mohiyati jihatdan xizmat tushunchasi bilan izohlanadi. Bundan tashqari ishlab chiqarilgan tovarlarni iste‘mol qilishning xususiyati esa, ishlab chiqarilgan tovarlarni uning iste‘molchilariga yetkazishda oraliq bo‘g‘inni talab qiladiki, bu jarayon esa xizmatlar sohasini yoki uni amalga oshirishni korxonalariga bo‘lgan ehtiyojni taqozo etadi.

2-jadval.

Xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari [3]

Tovarlar ishlab chiqarish tizimi	Iste‘mol qilish tizimi
Aholi turmush tarzidagi ehtiyojlar	Ishlab chiqarish sohasining bir maromda ketishining zarurati asoslari
Iqtisodiy tizimdagi ayrim ehtiyojlarni ishlab chiqarishning o‘ziga xosligi	Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish murakkabligi

Tovar ishlab chiqarish hajmining oshib borishi, uning diversifikasiyalashuvi, tovarlarni iste‘mol etishda ma‘lum bir qo‘shimcha xizmatlarni talab etishi ham xizmat ko‘rsatish korxonalarining yuzaga kelishiga muhim omil sifatida yuzaga

chiqadi. Bundan tashqari iqtisodiy tizimda ayrim tovarlarni ishlab chiqarishning o‘ziga xosligi ma‘lum bir xizmatlarga bo‘lgan talabni shakllantiradi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari"[4]

"Tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazishda muhim omil sifatida amal qilishi

Aholini bandligini ta'minlashda katta ahamiyatga egaligi

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga moslashganligi

Risk darajasi nisbatan kamligi

Moslashuvchanligi

Birinchiidan, tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan o'z tovarlarini iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish hamma vaqt ham samarali bo'lmaydi, bunda esa xizmat ko'rsatish korxonalarini katta rol o'ynaydiki, bu tovar ishlab chiqaruvchi uchun ham iste'molchilar uchun ham qulay hisoblanadi.

Ikkinchiidan, aholini bandligini ta'minlashda katta ahamiyatga egaligi, asosan kichik biznes shaklda mavjud bo'lishi hamda moliyaviy resurslarning tez aylanishligi kabi xususiyatlarga egaligi bunday korxonalarining bozor munosabatlarini tashkil etish va uning rivojlanib borishida o'ziga xos ahamiyatligini ko'rsatadi.

Uchinchiidan, ularning iqtisodiy-moliyaviy jihatdan bozor talablariga tez moslashuvchanligi, ya'ni, ixtisoslashgan faoliyat yo'nalishida raqobat kuchayib ketgan holatda xizmat ko'rsatishning yaqinroq, xizmat turiga moslashishi nisbatan tez amalga oshadi. Masalan, mehmonxona xizmatidagi talabning kamayishi oqibatida ovqatlanish xizmatiga moslashishi tez va kam xarajatlar bilan amalga oshishi mumkin, bu esa xizmat sohasining tez moslashuvchanligini ko'rsatadiki, tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalariga nisbatan ushbu xususiyatlari bilan afzallikka egadir.

To'rtinchiidan, uning moslashuvchanligi bu turdagi korxonalarining boshqa bir muhim xususiyati - risk darajasining nisbatan kamligini ham ko'rsatadi, bu kabi korxonalarini tashkil qilishda unga tikilgan moliyaviy sarmoyalarni qaytishi va samaradorlik ko'rsatkichlarini keltirishida risk boshqa yirik korxonalariga nisbatan kamroq bo'ladi, bu esa xizmat ko'rsatish korxonalariga investisiyalarning oqimining

ortishiga va bu turdagi korxonalarining oshishiga muhim omil bo'ladi.

Beshinchiidan, xizmat ko'rsatish korxonalarini aholining sotsial-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga moslashgan bo'ladi, bu esa aholining turmush tarzini yaxshilanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Respublikamizda xizmatlar sohasi ma'lum bir belgilarga ko'ra tasniflangan. Ushbu tasniflagichga asoslangan holda xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy ahamiyati jihatidan guruhlashtiramiz.

"Bugungi kunda xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalarining faoliyat turiga ixtisoslashuviga ko'ra, yuqorida keltirilgan xizmat ko'rsatish korxonalaridan tashqari, yana bir qator ularning turlari borki, ular jumlasiga, oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim, maktabgacha ta'lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta'lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, internet-kanallar va pochta aloqalarini qo'shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta'lim olish va xohlagan kasbga o'qishni ixtisoslashgan ta'lim sohasidagi xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar, statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pullik asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni ko'rsatadigan sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatadigan korxonalar, shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlar ko'rsatadigan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalarini ham keltirish mumkin"[6].

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining turlari [5]

XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARNING TURLARI	
"Aloqa va axborotlashtirish xizmat ko'rsatuvchi korxonalar	Aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radio eshittirish, elektron pochta, suniy yo'ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma'lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan
Moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar	moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachiligi va boshqa moliyaviy xizmatlar xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar.
Transport xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar	Transportning barcha turlarida yuklarni va yo'lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar.
Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar	Mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar.
Savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar	Ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar	Ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqola doirasida amalga oshirgan nazariy tahlillarga asoslanib quyidagi xulosaga kelindi:

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xilma-xilligini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlarini ko'rsatish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi. Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan narxlarda sotilganda, bozor uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlari hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi tovar ishlab chiqarish sohasidan o'z ichki va tashqi xususiyatlari va ularning iste'mol etilishi nuqtai nazaridan anchagina farqlanadi. Chunki, xizmatlar moddiy shakldagi tovarlarni ishlab chiqarish jarayonidagi ayrim nozik oraliq bosqichlarda namoyon bo'lib, ishlab chiqarishning bir

maromda ketishiga o'ziga xos funksiyani bajarsa, boshqa tomondan uning qiymatlarini aniqlash ham o'ziga xos bo'ladi. Xizmat ko'rsatish korxonalarini tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan o'z tovarlarini iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish hamma vaqt ham samarali bo'lmaydi, bunda esa xizmat ko'rsatish korxonalarini katta rol o'ynaydiki, bu tovar ishlab chiqaruvchi uchun ham iste'molchilar uchun ham qulay hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish korxonalarini aholining sotsial-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga moslashgan bo'ladi, bu esa aholining turmush tarzini yaxshilanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Aholini bandligini ta'minlashda katta ahamiyatga egaligi, asosan kichik biznes shaklda mavjud bo'lishi hamda moliyaviy resurslarning tez aylanishligi kabi xususiyatlarga egaligi bunday korxonalarining bozor munosabatlarini tashkil etish va uning rivojlanib borishida o'ziga xos ahamiyatligini ko'rsatadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Ochilov, Akram Odilovich - Qarshi davlat universiteti professori / Очиллов, Акрам Одилович - Профессор Каршинского

государственного университета / Ochilov Akram Odilovich - Professor at Karshi State University

► akram.oo@mail.ru

■ <https://orcid.org/0000-0003-0471-9525>

2. Xudoyorov, Azizbek Avaz o'g'li - Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi / Худаяров, Азизбек Аваз Угли - Независимый исследователь Каршинского государственного университета / Khudayarov Azizbek Avaz Ugli - Independent researcher at Karshi State University

► azizbek_xudoyorov@mail.ru

■ <https://orcid.org/0009-0002-0714-2880>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Федченко О.А., [1]. Қо'зибоев В.Н. Mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: iqt.fan.fal.dok.(PhD) avtoref.–Urganch 18-bet.
- [2]. Ismailov B.A. Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari iqtisod va moliya / ekonomika i finansi 2021, 8-144-betlar.
- [3]. Pardayev M.K. Xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari (nazariy jihatlar). Servis-Samarqand 2009 - № 1,37, 44 betlar.
- [4]. O'rinboeva Y.P. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish istiqbollari: iqt.fan.fal.dok. (PhD) avtoref.–Samarqand.: 2018, 58 bet.
- [5]. Mustafoyev G'S. Xizmat ko'rsatish va raqamli xizmatlar: rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil. 188-bet.
- [6]. Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tavsifi. // Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. T.: "Iqtisodiyot-moliya", 2008. 42-bet.
- [7]. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.YE., Amridinova R.S. Turizm asoslari: O'quv qo'llanma – S.: SamISI, 2010 – 247-bet.
- [8]. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 144-bet. (<https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com>).
- [9]. Очилов А.О. Инновационное развитие высшего образования в Узбекистане // Экономическое возрождение России. – 2012. – № 2 (32). – С. 193-196.

Xizmatlar sohasining iqtisodiy tahlili va soha rivojlanishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar

Xudoyorov, Azizbek Avaz o'g'li

Экономический анализ сферы услуг и возможностей, созданных для развития отрасли

Худаяров, Азизбек Аваз Угли

Economic analysis of the service sector and the opportunities created for the development of the sector

Khudayarov, Azizbek Avaz Ugli

Received: September 14, 2024 Revised: September 16, 2024 ■ Accepted: September 20, 2024 ■ Published Online: October 1, 2024

Annotatsiya. Xizmat sohasi iqtisodiyotning muhim sektori bo'lib, jamiyat va insonlar uchun iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatlarini bajaradi. Mazkur maqolada xizmatlar sohasining iqtisodiy tahlili, uning ahamiyati, turlari va soha rivoji uchun yaratilayotgan imkoniyatlar yoritilgan. Xizmatlar sohasining faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari hamda yalpi ichki mahsulotdagi ulushi iqtisodiy-statistik usullar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mahalliy ishlab chiqaruvchilar, yalpi ichki mahsulot, raqamli iqtisodiyot, xizmat sohasi, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy soha, konsalting xizmatlari, bozor xizmatlari, xalqaro tajriba, xususi sektor, kichik tadbirkorlik.

Аннотация. Сфера услуг является важным сектором экономики и осуществляет экономическую и социальную деятельность для общества и людей. В данной статье освещен экономический анализ сферы услуг, ее значения, виды и возможности, создаваемые для развития отрасли. Анализируются основные показатели сферы услуг по видам деятельности и ее доля в валовом внутреннем продукте экономико-статистические методы.

Ключевые слова: местные производители, валовой внутренний продукт, цифровая экономика, сфера услуг, оказание услуг, социальный сектор, консалтинговые услуги, рыночные услуги, международный опыт, частный сектор, малый бизнес.

Abstract. The service sector is an important sector of the economy and performs economic and social activities for society and people. In this article, the economic analysis of the service sector, its importance, types and opportunities created for the development of the sector are highlighted. The main indicators of the service sector by types of activity and its share in the gross domestic product are analyzed using economic and statistical methods.

Keywords: local producers, gross domestic product, digital economy, service sector, service provision, social sector, consulting services, market services, international experience, private sector, small business.

KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasi aholi yuqori turmush sifatini ta'minlashning va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishning belgilovchi omiliga aylandi. Ushbu sohaning, ayniqsa mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash va uning daromadlarini oshirish muammosini hal etishdagi beqiyos ahamiyatini kishilik jamiyati tomonidan erishgan katta yutuq sifatida alohida e'tirof etish lozim. Sohaning aholi turmush darajasini hamda sifatini yaxshilashdagi rolini oshirish, birinchi navbatda, ushbu sohani bugungi holati va rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilishni, ushbu sohada mavjud bo'lgan muammolarni aniqlashni va ularning yechimlarini izlab topishni, imkoniyatlarni belgilashni va kelajakda ulardan unumli foydalanishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni 1-ilovasi 34-maqсадida: "Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish"[1] yo'nalishi bo'yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish.

Shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlarini rivojlantirish.

Respublika hududlarida savdo va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish.

Servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish.

Qayd etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda jahonda davom etayotgan turli inqiroziy holatlar sharoitida, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan yanada qo'llab quvvatlash bo'yicha imtiyoz berish, infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash, bu jarayonlarda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish borasida ilmiy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb

masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakat milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, xususan, YAIM ishlab chiqarishda, aholini ish bilan ta'minlashda, uning turli ehtiyojlarini qondirishda turmush darajasi va sifatini oshirishda, davlat budjetini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi. Shu bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish sohasi ko'p tarmoqli va bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda faoliyat olib boruvchi soha. Ushbu sohada doimiy tarzda o'zaro milliy iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar sodir bo'ladi va rivojlanib boradi. Xizmat ko'rsatish sohasi, bir tomondan, milliy iqtisodiyotning boshqa soha hamda tarmoqlariga, ularning holati va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, uning rivojlanish imkoniyatlari hamda istiqbollari boshqa soha va tarmoqlar dinamikasi bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Mavzu yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borishgan va borishmoqda, ular mazkur sohani rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishmoqda. "Buyuk iqtisodchi Adam Smit xizmat shaklidagi noz-ne'matlarning iqtisodiy mazmunini to'laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbai sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida o'zining jahonga mashhur "Xalqlar boyligining tabiat va sabablari tadqiqoti" nomli asarida unumli mehnat va unumsiz mehnat tushunchalari xususida fikr bildirgan" [2]. Shu orqali A.Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab dastlabki xizmat tushunchasi yaralishiga katta hissa qo'shgan.

Xizmat atamasi olimlar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda turlicha nuqtai nazardan qo'llanilib iqtisodiy bilim sohasiga bog'liq holda talqin qilinadi. Ushbu atama doirasida ko'plab xorijlik va mahalliy olimlarimiz nazariy tadqiqotlar olib borishgan. Taniqli olimlardan biri F.Kotler bo'lib, u xizmatga quyidagicha ta'rif beradi: "Xizmat – bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatdir"[3].

Respublikamizning taniqli olimlaridan I.S.Tuxliyev: "Xizmatlar - bu ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir."[4] deydi va ushbu yondashuvda olim xizmatni tovar xususiyatini ifodalagan, ya'ni, xizmatlar ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish jarayonlaridagi mehnat munosabatlarini o'zida aks ettiradi, ammo ishlab chiqarish jarayoni natijasi nomoddiy shaklga ega bo'ladi deb ta'kidlashga harakat qiladi.

Xizmat tushunchasiga I.Ochilov tomonidan berilgan ta'rif boshqalariga nisbatan mazmun va mohiyat jihatidan

takomillik kasb etgan va u quyidagi shaklda berilgan: “Xizmat deyilganda, insonning, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma‘lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi”[5].

Muhammedov xizmat ko‘rsatish sohasi aholining sog‘lig‘iga, kayfiyatiga, mehnatga munosabatiga, ishchi-xodimlarning mehnat unumdorligiga, o‘z hayotidan rozilik darajasi va xursandligiga, umuman, ishlab chiqarish kuchlarining hayoti va taraqqiyotiga bevosita va sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi deb, ta‘kidlab o‘tadi.

Xususan, bu borada mamlakatimiz olimlaridan M.Q.Pardayev va H.N.Musayevlarning “xizmatlar sohasi bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi, iqtisodiy munosabatlar umumiy tizimida qatnashadi” [6]. deb aytilgan ta‘riflari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

“O‘zbekiston–2030” taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar muvaffaqiyatli hal etilishi xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish hisobiga respublikamiz aholisiga sifatli xizmat ko‘rsatishning aniq chora-tadbirlarini ishlab chiqish, statistik ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish va istiqbollari statistik prognozlashni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqoladagi ma‘lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, xizmatlar sohasining turlari, iqtisodiy ahamiyati, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi va soha rivoji uchun yaratilayotgan imkoniyatlar nazariy jihatdan yoritib berishga harakat qilindi. Ilmiy tahlil jarayonida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan

keng foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida xizmat ko‘rsatish sohasi turlari o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari orasida ustunlik mavqegini egallaydi. Bu murakkab ko‘p qirrali mexanizm bo‘lib, savdo va transportdan tortib ta‘lim va sug‘urta xizmatlarigacha bo‘lgan keng doiradagi faoliyatni qamrab oluvchi zamonaviy iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar faoliyatining xilma xilligi, shuningdek, xizmatlar sohasidagi turli faoliyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ushbu sohaning jadal rivojlanishi uchun omil bo‘lib xizmat qiladi. Ichki talabni muvozanatli rag‘batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralarga bo‘lgan iste‘mol talabining tarkibidagi o‘zgarishlarni ta‘minlamoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini oshirish, shuningdek xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlariga qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda xizmatlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan va bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan turlari jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda.

2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlar belgilanib, bunda “.arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik – kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish”[8] yuzasidan muhim vazifalar belgilab olindi.

1-jadval.

Sohalarning YAIMdagi ulushi [11]

XIZMAT TURLARINING NOMI	YAIMDAGI ULUSHI		O‘SISH KO‘RSATKICHI
	2022-YIL	2023-YIL	
Xizmatlar sohasi	41,60%	43,40%	1,80%
Qishloq o‘rmon va baliqchilik sohasi	24,90%	24,30%	0,60%
Sanoat sohasi	27%	26,10%	-0,90%
Qurilish sohasi	6,50%	6,20%	-0,30%

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2023-yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar hajmi 470 286,5 mlrd.so'mga yetdi va bu sohada kichik tadbirkorlikning ulushi - 47,7 % ni, aholi jon boshiga xizmatlar hajmi - 12 915,6 ming so'mni va korxonalar va tashkilotlar ulushi - 70,7 % ni tashkil qildi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida xizmatlar

sohasining ulushi 41,6 % dan 43,4 % ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 24,9 % dan 24,3 % ga, sanoatning ulushi 27,0 % dan 26,1 % ga, qurilish tarmog'ining ulushi 6,5 % dan 6,2 % ga kamaydi. 2023-yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 29 291,4 ming so'mni tashkil etdi.

2-jadval.

Xizmat ko'rsatish sohasining tahlili [11]

XIZMAT TURLARINING NOMI	XIZMATLAR HAJMI MLRD SO'MDA		O'SISH SUR'ATI %DA
	2022-YIL	2023-YIL	
Xizmatlar hajmi,	357 554,50	470 286,50	113,7
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	22 917,60	32 226,60	124,6
moliyaviy xizmatlar	80 431,00	106 363,80	120,6
transport xizmatlari	81 006,60	108 477,70	108
yashash va ovqatlanish xizmatlari	11 322,80	18 327,30	112,6
savdo xizmatlari	88 847,90	110 662,40	110,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	15 395,70	20 418,40	122,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	6 384,20	8 441,20	111,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7 338,20	7 959,70	100,2
boshqa xizmatlar	13 235,70	19 865,00	120,6

2022-2023 yillar davomida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat ko'rsatish turlarining qo'shgan hissasini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, moliyaviy xizmatlar - 4,5 % ga, savdo xizmatlari - 2,5 % ga, transport xizmatlari - 1,8 %ga, boshqa xizmatlar - 1,8 %ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 1,6 %ga, ta'lim sohasidagi xizmatlar - 1,0 % ga va yashash va ovqatlanish xizmatlari - 0,5 % ga oshgani, ya'ni shu davrlar oralig'ida bu ko'rsatkich 13,7 %ga o'sganini ko'rish mumkin.

Bu ko'rsatkichlarni, ya'ni ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sishini 2023 yilning dastlabki ma'lumotlari bilan o'tgan 2022-yil shu davrga nisbatan taqqoslab ko'radigan bo'lsak, savdo xizmatlarining - 23,5 % ga o'sishi, transport xizmatlari - 23,1 % ga, moliyaviy xizmatlar 22,6 % ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 6,9 % ga, ta'lim xizmatlari - 4,3 % ga,

yashash va ovqatlanish xizmatlari - 3,9 % ga, shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar - 2,6 % ga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,8 % ga, ijara xizmatlari - 1,6 % ga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 1,7 % ga va boshqa xizmatlar - 4,2 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibini statistik o'rganib chiqadigan bo'lsak, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo (23,5 %) va transport xizmatlari (23,1 %) egallaydi. Xizmatlar sohasini faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, 2023-yil davomida transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi 47,3 foiz.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmi telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2023-yil davomida mazkur sohaning ulushi 54,7 foizni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi 56,5 foizni tashkil etdi.

2023-yil davomida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi 43,1 foizni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilib aytish lozimki, bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar orqali bog'langan.

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ko'plab maqsad va vazifalar belgilab berildi. Ushbu belgilab berilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, bu islohotlarning uzviyligini davom ettirish, xususan, xizmat ko'rsatish sohasini istiqbolda tizimli rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Zero shunday ekan, hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur sohani rivojlantirish borasida, bir qator takliflarni berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Ushbu belgilab berilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, bu islohatlarning uzviyligini davom ettirish, xususan, xizmat ko'rsatish sohasini istiqbolda tizimli rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Zero shunday ekan, hozirgi iqtisodiyotning yangi rivojlanish davrida mazkur sohani rivojlantirish borasida, bir qator takliflarni berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Birinchidan, xizmat ko'rsatishning zamonaviy bozor xizmatlari ko'lamini kengaytirish, yangi-yangi xizmat turlarini joriy etish orqali sohada ijobiy raqobatbardosh muhitni yaratish hamda sohaning mamlakat milliy iqtisodiyotidagi ulushini keskin oshirish. Buning uchun xizmatlar sohasining samaradorligini yanada oshirish va xizmatlar sohasini iqtisodiyotning drayveriga aylantirish zarur.

Ikkinchidan, IT, ta'lim, turizm, aloqa, transport va logistika xizmatlarini rivojlantirish, chekka hududlarning internet bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, yo'l bo'yi xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini zamonaviy talablarga moslashtirish, sog'liqni saqlash tizimida bo'sh turgan bino va yerlardan samarali foydalanish maqsadida ushbu sohaga xorijiy investorlarni va xususiy sektorni keng jalb qilish hamda ular faoliyatini kengaytirish.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xudoyorov, Azizbek Avaz o'g'li - Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi / Худаяров, Азизбек Аваз Угли - Независимый исследователь Каршинского государственного университета / Khudayarov Azizbek Avaz Ugli - Independent researcher at Karshi State University

► azizbek_xudoyorov@mail.ru

■ <https://orcid.org/0009-0002-0714-2880>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022—2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // www.lex.uz
- [2]. Kotler, F., Marketing menedjment. Eks press-kurs. 2-ye izd. / Per. s angl. pod red. Bojuk S. G. SPb.: Piter, 2006.- 464 bet.
- [3]. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.YE., Amridinova R.S. Turizm asoslari: O'quv qo'llanma – S.: SamISI, 2010 - 247 bet.
- [4]. Botirova R., Ikromov I. (2017) Hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari. №11(119). <http://www.biznesdaily.uz>
- [5]. Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tavsifi. // Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. T.: "IQTISODIYOT-MOLIYA", 2008 yil.
- [6]. M.Q.Pardayev, H.N.Musayev Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. Professorlar lar tahriri ostida - T.: Iqtisod-moliya, 2008. - 194 bet.
- [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. // www.lex.uz
- [8]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/5840284>
- [9]. Muhammedov M.M. (2009) "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish - ustuvor masala". Servis jur. №1,- 47-56 betlar.
- [10]. Ernazarov G.B. (2024) "Yangi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish davrida xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va ahamiyati, uning iqtisodiy-statistik tahlili va istiqbollari" maqola TDIU: Iqtisodiyot va ta'lim jurnali 2024 yil №1-soni 8-bet.
- [11]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

March 2024
Volume 2
Number 3



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL